

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRILARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI



## MAXSUS PEDAGOGIKA

Maxsus pedagogika ta'limi metodikasi

MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA

А	Б	В	Г	Д	Е	Ж
З	И	Й	К	Л	М	Н
О	П	Р	С	Т	Ү	Ф
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ҷ	Ы
Ь	Э	Ю	Я			

TOSHKENT

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** **M.Y.Ayupova** - Nizomiy nomidagi TDPU “Logopediya” kafedrasи professori., p.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:** **M.F.Xakimova** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Kasb ta’limi (iqtisodiyot)” kafedrasи mudiri, prof., p.f.d.

**N.Z.Abidova** – Nizomiy nomidagi TDPU “Logopediya” kafedrasи mudiri, dos., PhD.

**Xorijiy ekspert:** p.f.d., professor O.S.Orlova - Rossiya, Moskva davlat pedagogika universiteti.

**O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>13</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>31</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>107</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>125</b>
<b>VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>138</b>

## **I. ISHCHI DASTUR KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda Maxsus pedagogika ta’limi metodikasi kursining nazariy asoslari, fanini o‘qitishda innavatsion ta’lim, maxsus pedagogika fanlarini

o‘qitishda ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarini loyihalashtirish, maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda seminar hamda mustaqil ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish masalalari bayon etilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarning o‘quv - tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik maxoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

- kurs tinglovchilarida defektologiya fanining zamonaviy dolzARB muammolari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;
- pedagog kadrlarning defektologiya fanlari bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning soxaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar soxasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va amalda qo’llash ko‘nikmasi va malakalarini rivojlantirish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga quyiladigan talablar**

“Maxus pedagogika ta’limi metodikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida:

#### **Tinglovchi:**

- oliy ta’lim tizimida defektolgiya ta’limi sohasidagi kadrlarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablarni;
- ta’lim mazmunini modernizatsiyalashni;
- ta’limning normativ-huquqiy hujjatlarini;
- maxsus pedagogika fanlarining umumiy va hususiy tushunchalarini;
- maxsus pedagogika fanining yutuqlari va innovatsiyalarini;
- kasbiy soxasidagi pedagogik tadqiqotlarning o‘ziga xos hususiyatlari, ularni tashkil etish va o‘tkazishdagi yondashuvlar haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi;**

- fanlardagi innovatsiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish;
- darslarda tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta’lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;
- fanni o‘qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalardan foydalanish;
- ta’lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo‘lgan extiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish;
- o‘qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;
- moderator o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish asosida o‘zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;
- ta’lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo‘lgan extiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqlashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- didaktik ta’minotni takomillashtirish kabi ko‘nikma va ***malakalarini egallashi***;
- maxsus pedagogika fanlarining zamonaviy yo‘nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyanlari pedagogik faoliyatda qo‘llay olish;
- mashg‘ulotlarda innovatsion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo‘llash;
- ta’lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta’lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;
- rivojlangan mamlakatlarda maxsus pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasidagi ilg‘or tajribalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiya qilish ***kompetensiyalarni egallashi lozim.***

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Maxsus pedagogika ta’limi metodikasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blitz-so'rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lif metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

**"Maxsus pedagogika ta'lifi metodikasi"** moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish", "Talabalar bilimini baholash" hamda "Yo'nalishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari" kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning olyi ta'lifdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lif va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	nazariy	amaliy
1.	Maxsus pedagogika ta'lifi metodikasi modulini nazariy asoslari.	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>2</b>
2.	Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lif	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
3.	Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda ma'ruza va amaliy, seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish.	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
4.	Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lifini loyixalashtirish	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
<b>JAMI</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

## **NAZARIY MASHFULOTLAR MAZMUNI**

### **1 - mavzu. Maxsus pedagogika ta’imi metodikasi modulining nazariy asoslari (4 soat)**

Zamonaviy sharoitda pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog‘lik muammolar va ularni hal etish strategiyalari. Defektologlarni tayyorlashning huquqiy-meyoriy va tashkiliy asoslari. Maxsus pedagogika ta’imi metodikasi modulining maqsadi, vazifalari. Maxsus pedagogika ta’imi metodikasini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan o‘quv fanlarining hususiyatlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi.

### **2 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘qitishda innovatsion ta’lim (2 soat)**

Maxsus pedagogikadagi innovatsiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari. “O‘qitish metodikasi” va — “Pedagogik texnologiya” tushunchalari tavsifi. “O‘qitish metodikasi” va “Ta’lim texnologiyasi” tushunchalarining qiyosiy tahlili. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda an’anaviy va innovatsion yondoshuvni uyg‘unlashtirish zaruriyati. Ta’limning interfaol metodlari mutaxassislik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash.

### **3 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini loyihalashtirish (2 soat)**

Ma’ruza o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri. Ma’ruza maqsadi, vazifalari, tuzilishi. Ma’ruza turlari: muammoli ma’ruza, vizuallashtirishi ma’ruzasi, xamkorlikdari ma’ruza, press-konferensiya ma’ruzasi, suxbat-ma’ruza. Amaliy va seminar mashg‘ulotlar o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri. Amaliy, seminar mashg‘ulot maqsadi, tuzilishi. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari: Mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni hal etishga qaratilgan mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, ishga doir o‘yinlar, ko‘chma mashg‘ulotlar.

### **4 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’limini loyihalashtirish (2 soat)**

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish maqsadi. Mustaqil ta’lim turlari, mustaqil ta’lim tasnifi. Mustaqil ta’limni rejalashtirish, mustaqil ta’lim mavzulari.

## **AMALIY MASHFULOT MAZMUNI**

### **1 - mavzu. Maxsus pedagogika ta'limi metodikasi modulining nazariy asoslari (2 soat)**

Zamonaviy sharoitda pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'lik muammolar va ularni xal etish strategiyalari. Defektologlarni tayyorlashning huquqiy-meyoriy va tashkiliy asoslari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining maqsadi, vazifalari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini o'rghanish uchun zarur bo'lgan o'quv fanlarining xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi.

### **2 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim (4 soat)**

Maxsus pedagogikadagi innovatsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari. "O'qitish metodikasi" va — "Pedagogik texnologiya" tushunchalarini tavsiyi. "O'qitish metodikasi" va "Ta'lim texnologiyasi" tushunchalarining qiyosiy tahlili. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda an'anaviy va innovatsion yondoshuvni uyg'unlashtirish zaruriyati. Ta'limning interfaol metodlari mutaxassislik fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash.

### **3 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda ma'ruza va amaliy, seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish (4 soat)**

Ma'ruza o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri. Ma'ruza maqsadi, vazifalari, tuzilishi. Ma'ruza turlari: muammoli ma'ruza, vizuallashtirishi ma'ruzasi, xamkorlikdari ma'ruza, press-konferensiya ma'ruzasi, suxbat-ma'ruza.

Amaliy va seminar mashg'ulotlar o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri. Amaliy va seminar mashg'ulot maqsadi, tuzilishi. Amaliy va seminar mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari: Mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni hal etishga qaratilgan mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, ishga doir o'yinlar, ko'chma mashg'ulotlar.

### **4 - mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'limini loyihalashtirish (4 soat)**

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadi. Mustaqil ta'lim turlari, mustaqil ta'lim tasnifi. Mustaqil ta'limni rejorashtirish, mustaqil ta'lim mavzulari.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustaxkamlash);
- davra suxbatlari (ko'rilibayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- baxs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Toshkent "Adolat" 2017 yil.
2. Mirziyoyev SH.M. Konstitusiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganini 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi 2017-yil 7-dekabr. Toshkent "O'zbekiston" 2018.
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining nutqi. Toshkent- "O'zbekiston" 2017-yil.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.
5. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. T.: 2008-yil.
6. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son 01-dekabr 2017-yildagi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-1533-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va

malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldag“Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.

### **Maxsus adabiyotlar**

11. Voinova M.G. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. - 160 s.

12. Geydebrandt K.F. Uchebniy plan svobodnoy valdorfskoy shkoli.. \\ Chastnaya shkola. - 1997. № 2

13. Guzeyev V. V. Integralnaya obrazovatelnaya texnologiya. - M., 1999.

14. Guzeyev V.V. Obrazovatelnaya texnologiya: ot priyema do filosofii. M.: Sentabr, 1996.

15. Guzeyev V.V. Planirovaniye rezul’tatov obrazovaniya i obrazovatelnaya texnologiya. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 2000.

16. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. - M., 2001.

17. Ijtimoiy pedagogika. / Egamberdiyeva N.- T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. - 232 b.

18. Jukova YE.D. Texnologiya organizatsii i realizatsii samostoyatelnoy raboti studentov: rabochaya tetr. - Ufa : Izd-vo BGPU, 2004.

19. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obuchenija. Sovremennaya interpretatsiya. - M., 2001.

20. Zufarov SH. Pedagogik innovatika. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.

21. Kashlev S.S. Sovremennye texnologii pedagogicheskogo protsessa. M.: “Universitetskoye”, 2000.

22. Levites D.G. Sovremennye obrazovatelniye texnologii. Novosibirsk, 1999.

23. Mardonov SH.K. Yangi ta’limiy kadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. - T.: Fan, 2006.

24. Muslimov N.A., Kuysinov O.A. Kasb ta’limi ukstuvchilarini tayyorlashda mustaksl ta’limni tashkil etish. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik kullanma. 2006.

25. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Y.YE, Yakubjonova D.B. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Fan va texnologiya” T.: 2013.

26. Yarmatov R. Bulajak ukituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.

27. Yarkulov R., Muxamedov M.F. Vissiy pedagogicheskiy obrazovatelniy protsess. Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagogicheskix institutov i universitetov. TGPU imeni Nizami. T., 2007.

#### **IV. Internet saytlar**

28. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

29. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

30. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

31. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyonET

32. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




### **“Kichik guruhlarda ishslash” metodi**

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishslash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishslash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishslash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘naliş yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

#### **«Kichik guruhlarda ishslash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtning tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

#### **«Kichik guruhlarda ishslash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

### **Davra stoli tuzilmasi**


Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

### **“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdag'i "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zları bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

**"BAHS-MUNOZARA" METODI**- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

"Bahs-munozara" metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ "o'ng qo'l" qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida "Bahs-munozara" metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



### **Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lif beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lif beruvchi ta'lif oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lif beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lif oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lif beruvchi ta'lif oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lif beruvchi ta'lif oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



### **"FSMU" metodi**

“FSMU”-(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rghanishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini

shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so‘rashda, uygaz vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “Tarix fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvingasosiy farqlari?



### **"XULOSALASH" (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot

beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg‘ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Tarix fanidan Davlat ta’lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:			



### “SWOT-тахлил” методи

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil

qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Tarix o‘qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To‘siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	Oddiy darsda o‘qituvchi, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
W	O‘qituvchi asosan a’lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta’limda darsda ko‘p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
O	Oddiy darsda faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tug‘ilishi mumkin
T	O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni

	o‘qituvchini majburiyati	eshitib	o‘tirish	mavzudan intilishlari	chetga	burishga
--	-----------------------------	---------	----------	--------------------------	--------	----------



## "Insert" metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### Metodni amalgaga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



## “Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikasiya)ni amalgaga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'limgan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikasiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;

3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;

4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### Madaniyat

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat



## "Konseptual jadval" metodi

Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi yechimi topilishi lozim bo'lgan mavzu

Tinglovchilar mavzu va metoddan foydalanish

Tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi

Guruhrar o'zlariga berilgan topshiriqni bajaradi

Guruhrar yechimni guruhrar jamoasi hukmiga havola

Guruhrarning yechimlari guruhrar jamoasida muhokama qilinadi

O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

Namuna:

Tarix darslarida interfaol ta’lim usullaridan foydalananishning jihatlari	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			



## "Tushunchalar" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib,

baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Tarixiy manba		
Tarixiy adabiyot		
Tarixiy hujjat		
Tarixiy xarita		
Tarixiy surat		
Tarixiy fonogramma		
Tarixiy xat		
Tarixiy makon		

**Izoh:** Ikkinchи ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

**“Muammoli vaziyat” metodi**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan bирgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



### **“T-jadval” texnologiya**

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo‘silsalar, birinchi ustunda “+” aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo‘yadilar.

**Izoh: O‘qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi

### “T-jadval” texnologiyasi

<b>O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)</b>	
+ (ha, ijobiy) afzalligi (yutug‘i)	- (yo‘q, salbiy) kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

### “Innovasion texnologiyalarni darsda foydalanish”

<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
“Qaytar aloqa”ning ta’minlanishi motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi	ko‘p vaqt talab etilishi tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob’ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi	o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi
o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo‘lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatining goshishi	qaytar aloqaning ta’minlanmasligi

### XULOSA

#### *T-sxema ko‘rinishida vazifa*

<b>Ha</b>	<b>Fikr-mulohazalar</b>	<b>Yo‘q</b>
	O‘zbekistonda “Tashselmash”, “O‘zbekselmash”, “Krasniy dvigatel”, “Pod’emnik” va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi.	
	1950 yil O‘zbekistonda 2.220 ming tonna paxta tayyorlandi.	
	Sug‘orish ishlarini yaxshilash uchun sun’iy suv omborlari qurildi.	
	XX asrining eng yirik ekologik - “Orol fojeasi” vujudga keldi.	
	O‘zbekiston mamlakati paxta xom-ashyo bazasiga aylantirildi.	
	O‘zbekiston “Oq-oltin”dan katta manfat ko‘rardi.	



## “Blis-o‘yin texnologiyasi”

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning o‘rtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.

**Tarixiy voqealar** – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo‘lindi, Konstantinopol, YustinianI imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo‘natdi, Vizantianing zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yo‘l ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qo‘ldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga ko‘plab yer-mulklar in’om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil o‘matilishiga olib keldi.

Yil,sana	Sodir bo‘lgan voqelik

### “Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalgalashiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



## “Hamkorlikda o‘qitish” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning asosiyligi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingen bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, tinglovchilarining o'r ganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;
- axborot va "moddiy resurslar", ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lган barcha narsalar bilan almashadi;
- o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiyl maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'r ganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'r ganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarini shakllantiradi;
- tinglovchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;
- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiyl maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;
- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;

- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiyl natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;
- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruhda ishslash qoidalari:**

Har kim o'z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;  
 Har kim faol, birgalikda ishslashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;  
 Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;  
 Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;  
 Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.  
 - Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!  
 - Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

### **Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingiznimuhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

#### 1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lif beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

#### 2-Asosiy bosqich

1. Ta'lif oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lif oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.
2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lif oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni

baajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

**4.** Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalar uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

**5.** Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejulashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumi yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishslashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

**6.** Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1- Mavzu: Maxsus pedagogika ta'lifi metodikasi modulini nazariy asoslari**

##### **Reja:**

1. Zamonaviy sharoitda pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari.
2. Defektologlar tayyorlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy asoslari.
3. Maxsus pedagogika ta'limi metodikasi modulinining maqsadi, vazifalari.

**Asosiy atama va tushunchalar:** «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Bola huquqlari kafolati to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, bakalavriat, magistratura, davlat ta'lim standarti, o‘quv reja, o‘quv dasturi, maxsus (defektologik) ta'lim, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari, ixtisoslik fanlari, ta'limning qo‘srimcha turlari, reyting tizimi, kasbiy faoliyat turlari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish, ta'lim maqsadi va vazifalari, o‘qitish tamoyillari. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Davlat ta'lim standarti, o‘quv dasturi, kompetensiya, ixtisoslik fanlari, umumkasbiy fanlar, standartlar, oliy ta'lim muassasasi ma’muriyati, majburiy komponentlar, ta'limning qo‘srimcha turlari, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar.

##### **1. Zamonaviy sharoitda pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish strategiyalari**

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi, o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo‘lini belgilashi kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish. Bu borada qator choralar ko‘rish zaruratinini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan, eng avvalo, ta’kidlash lozimki, ikkita juda muhim xujjat qabul kilindi: ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini, respublikada ta'lim tizimi va turlarini belgilab bergen «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga doyr «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Bugungi kunda Dasto‘rning uchinchi bosqichi (2005 va keyingi yillar) amalga oshirilmokdaki, u quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazasini yanada mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini eng yangi o‘quv-metodik komplekslar, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to‘liq ta’minlash;

- milliy (elita) ta’lim muassasalarining tiklanishi va rivojlanishi, ularning mustaqilligi va o‘z-o‘zini boshqarishini ta’minlash;

- ta’lim jarayonini axborotlashtirishni ta’minlash, Uzluksiz ta’lim tizimini dunyo axborot tarmoqlariga chiqish imkonini bo‘lgan kompyuter axborot tizimlari bilan to‘liq qamrab olish.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlar qoidaga muvofiq uch asosiy – ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruvga doir jihat bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Mazkur jihatlarning mazmunidan innovatsion jarayonlar yuzaga keladigan umumiy shart-sharoitlar hosil bo‘ladi. Mavjud shart-sharoitlar innovatsion jarayonning amalga oshishiga to‘sinqilik qilishi ham mumkin. Innovatsion jarayonlar ham stixiyali, shuningdek, ongli boshqarilishi mumkin. Yangilik kiritish – bu eng avvalo, tabiiy va sun’iy o‘zgarishlar jarayonini boshqarish funksiyasi. Shuning uchun ta’limdagi innovatsion jarayon – bu ta’limdagi o‘zgarishlarni boshqarish jarayoni demakdir<sup>1</sup>.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatdan tashqari o‘z ichiga ko‘plab uni amalga oshirish shart-sharoitlarini, shu jumladan, faoliyat sub’ektlarini qamrab oladi. Innovatsion jarayon sub’ekti deganda, ta’lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar (rektor, prorektor, kafedra mudirlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar, ota-onalar, homiyalar, metodistlar, konsultantlar, ekspertlar) va ta’limni boshqarish organlari tushuniladi. Ular harakatining birligi ma’lum bir natijalarga erishishga olib keladi. Innovatsion jarayon sub’ekti sifatida o‘qituvchi yangilikni o‘zlashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etishda katta rol o‘ynaydi. Mazkur jihat innovatsion muhit sharoitida pedagog faoliyatini boshqarishda qator o‘ziga xos jihatlarga e’tibor qaratishni talab etadi. *Odatda, oliy ta’lim muassasalarida rahbar-xodimlar innovatsiyalarni joriy etish jarayonida professor-o‘qituvchilarning xulq-atvori turli xil ko‘rinishlarda (ayrimlari yangilikni tatbiq etishga qarshilik ko‘rsatishi, ba’zilari butunlay inkor etishi)da namoyon bo‘lishi haqida ko‘p gapirishadi. Aslida mazkur holat tabiiy jarayon bo‘lib, innovatsiyalarni joriy etishda pedagog faoliyatini boshqarishda quyidagi bosqichlarni hisobga olishlari va ana shu asosda ularga ta’sir ko‘rsatishlari lozim: yangilikni inkor etish, yangilikka qarshilik ko‘rsatish, yangilikni tadqiq etishga kirishish, yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish, yangilikni qo’llashni an’anaga aylantirish.*

Birinchi – inkor etish bosqichi jamoa a’zolarining yangi g‘oyani qabul qilishga tayyor emasliklari, avvalgi yo‘nalish bo‘yicha ish tutishga istak bilidirishlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichda rahbar yangi g‘oya

---

<sup>1</sup> Xutorskiy A.V. Pedagogicheskaya innovatika. – M.: Akademiya, 2008. – S.40.

haqida ko‘proq axborot berishi, uning imkoniyatlari va natijaviyligini ko‘rsatib bera olishi muhim sanaladi.

Ikkinchi – yangilikka qarshilik ko‘rsatish bosqichida rahbar jamoa a’zolarining ochiq qarshiligiga uchraydi. Ana shu sababli mazkur bosqichda rahbar u tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyaning qo‘llab-quvvatlovchi a’zolarni to‘plashi va ularga suyanishi zarur.

Uchinchi – yangilikni tadqiq etish bosqichda pedagoglar ma’lum tanaffusdan so‘ng yangi g‘oyalarni idrok etadilar, yangi faoliyat usullarini qo‘llay boshlaydilar. Mazkur bosqichda rahbar tomonidan “aqliy hujum” uyuştirilishi jamoaning innovatsion faoliyatini tashkil etishda yaxshi samara beradi.

To‘rtinchi, ya’ni yangilikni tatbiq etish doirasini kengaytirish – ijodiy guruahlarni keng tarzda rivojlantirish bosqichidir. Innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirishni tezda yaxshilashning maqsadi aniqlanadi, yangi mazmuni izlanadi, yangi rituallar yaratiladi.

Beshinchi – yangilikni qo‘llashni an’anaga aylantirish bosqichida yangilik ta’lim muassasasi ta’lim amaliyotiga mustahkam kirib boradi va joriy etiladi<sup>2</sup>.

*So‘z boshida ta’kidlab o’tganimizdek, respublikamizda pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishiga keng e’tibor qaratilgan. Biroq faqat ma’lum vaqt oralig‘ idagi qisqa kurslar doirasida doimiy ravishda o‘zgarishlar, yangilanishlar bilan boyib boradigan pedagogik faoliyatning samaradorligi to‘liq ta’milanmaydi. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan yangiliklarni samarali o‘zlashtirishning va amaliyotga joriy etishning muhim vositalaridan biri pedagog-kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdir.*

Pedagogika va pedagogik menejmentda innovatsion salohiyat tushunchasi ikki xil tarzda talqin etiladi: keng ma’noda – ta’lim muassasasining innovatsion salohiyati, tor ma’noda – o‘qituvchining innovatsion salohiyati. Ta’lim muassasasining innovatsin salohiyati deganda, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligi, shaxsnинг o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun madaniy-ta’limiy muhitning va shart-sharoitlarning xilma-xilligi hamda kommunikativ munosabatlarning yuqori darajasi tushuniladi. Alovida pedagog uchun esa, bu – uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy o‘ziga xosliklar yig‘indisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir<sup>3</sup>.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion salohiyat – innovatsion jarayonning muhim sharti sifatida qaralib, uch tarkibiy qismni o‘z ichiga qamrab oladi: oliy harbiy bilim yurti pedagogik jamoasining innovatsion salohiyati, ijodiy

<sup>2</sup> Zufarov Sh.M. Pedagogika kollejlarida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2010. – B. 70-71.

<sup>3</sup> Volchkova A.P. Upravlenie innovatsionnym protsessom v sovremennoy shkole: organizatsionno-pedagogicheskiy aspekt: diss. ... kand.ped.nauk. Moskva 1999. – S.101.

guruhlarning innovatsion salohiyati hamda alohida (konkret) harbiy pedagogning innovatsion salohiyati.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish dinamik tavsifga ega bo‘lib, ichki(sub’ektiv) va tashqi (ob’ektiv) omillar ta’sirida yuzaga chiqadi. Ana shu sababli pedagog-kadrlarning malakasini oshirish vositasi sifatida innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ahamiyatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik innovatika va innovatsion menejmentga doir tadqiqotlar va adabiyotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda pedagog-kadrlarining innovatsion salohiyatni rivojlantirishga to‘sinqlik qiluvchi quyidagi omillar mavjud:

- 1) novatsiya (yangiliklar)ning foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lmasligi;
- 2) agar taklif qilingan yangilikni joriy qilinishi ko‘p kuchni talab qilsa-yu, o‘qituvchilarning esa imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, bu holat yangilikni o‘zlashtirishni to‘xtatish omili bo‘lishi mumkin;
- 3) sub’ekt tomonidan yangilikni o‘zlashtirish uchun yetarli darajada motivatsiyaning mavjud emasligi;
- 4) yangiliklarni qabul qilishga nisbatan qarshilik va uning ochiq namoyon bo‘lmasligi kabilar.

Innovatsion salohiyatni tashkillashtirish jarayonining tuzilishi murakkab tavsifga ega bo‘lib, salohiyatning rivojlanish darjasini esa innovatsion imkoniyatlarni, pedagog kadrlarlarning o‘z mehnati samaradorligidan qoniqish hosil qilishlarini taqozo etadi. Mazkur ta’rifni asos qilib olgan holda, innovatsion salohiyatning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Texnologik tarkibiy qism pedagoglarning kasbiy ko‘nikma va malakalarga egaligi darjasini, ishlab chiqarish texnologiyalari, tashkilotdagi yangilanishlarni boshqarish va amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

Pedagog-kadrlarning innovatsion faoliyatga texnologik tayyorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) o‘z faoliyat natijalarini tanqidiy baholay olish qobiliyati;
- 2) o‘z kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- 3) yangi axborotni ijobiy idrok etish qobiliyatiga egalik;
- 4) tashkiliy madaniyat va psixologik muhitning innovatsion faoliyatga yo‘nalganligi.

2. Kognitiv tarkibiy qism o‘zida jamoa a’zolarining kelgusi yangilanishlardan xabardorligi, shu bilan birga innovatsiya sub’ektlarining professional bilim darajasini aks ettiradi.

3. Kreativ tarkibiy qism professional faoliyatni amalga oshirishda pedagoglarda ijodiy yondashuvning mavjudligi, ularning muammoli vaziyatlarda nostandart fikrlay olish ko‘nikmalariga egaliklarini aniqlab beradi.

4. Psixologik muhitda namoyon bo‘luvchi muassasaning tashkiliy madaniyati, qadriyatga yo‘nalganligi, ijtimoiy ustanovkalar, jamoa a’zolarining

xatti-harakatlari innovatsion salohiyatning regulyativ tarkibiy qismi mazmun-mohiyatini olib beradi.

5. Jamoa a'zolarining innovatsiyani o'zlashtirish jarayoni, ularning faoliyatiga ta'sir etishi, uni kuchaytirishi yo susaytirishi hissiy-emotsional tarkibiy qism bilan belgilanadi.

6. Motivatsion tarkibiy qism jamoa a'zolarining yangilikka munosabatini aniqlash: innovatsion faoliyatga da'vat etish, uning chegara va shakllarini belgilab berish, ta'lim muassasasi maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, mo'ljallangan motivlardan tarkib topadi.

Motivatsion-ijodiy yo'nalghanlik pedagog-kadrlarda quyidagi ehtiyoj va qobiliyatlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- 1) pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'lмаган yondashuvlarni izlab topish;
- 2) izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish;
- 3) yangiliklarni amaliyotda qo'llay olish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish va ularni rivojlantirish;
- 4) pedagogik refleksiyani amalga oshirish;
- 5) ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik shart-sharoitlarga doir o'zgarishlarga tez moslasha olish.

Pedagogika fanida jamoaning innovatsion salohiyatini baholashga doir yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida diagnostik yondashuv keng tarqagan. Diagnostik yondashuvni amalga oshirish aniq belgilangan mezonlar asosida jamoaning rivojlanganlik darajasini tashxis etish va tahlil etish hamda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni baholashni talab etadi.

Pedagog-kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1) harbiy pedagog-kadrlarning ijod qilishi uchun erkinlikning taqdim etilganligi;
- 2) novator pedagoglarni resurslar bilan ta'minlanishining rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
- 3) jamoada munozara va fikrlar almashinuvining faol yo'lga qo'yilganligi;
- 4) kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ishtiyoqning rag'batlantirilganligi;
- 5) pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi uchun imkoniyatlarning taqdim etilishi;
- 6) yuqori darajadagi axboriy ta'minotning yo'lga qo'yilganligi;
- 7) o'zgarishlar argumentatsiyasining asoslanganligi;
- 8) jamoada ishonch va o'zaro bir-biriga yordam berish jarayonining qo'llab-quvvatlanishi.

*Innovatsion muhit sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bu o'qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar*

*bo‘lib, mazkur muammoning hal qilinmasligi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi: 1) pedagogning o‘z ishidan qoniqmasligi; 2) pedagogik mehnat samaradorligining pasayishi; 3) psixik zo‘riqishning kuchayib borishi; 4) kasbiy deformatsiyalarning to‘planib borishi va boshqalar.*

O‘qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar ko‘p aspektli tavsifga ega bo‘lib, ularni asosiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kasbiy. Ushbu jihat bilan bog‘liq qiyinchiliklar samaradorlik, ishonch, faoliyat sifati orasidagi sabab-oqibat aloqadorliklari va faoliyat sub’ektining individual o‘ziga xosliklarini o‘rganish bilan tavsiflanadi.

2. Fiziologik. Mazkur jihat o‘qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni uning oliy nerv faoliyati tizimi va sensomotor harakatlari orasidagi bog‘liqlikda ko‘rib chiqadi.

3. Ijtimoiy. Ushbu jihat bilan bog‘liq qiyinchiliklar o‘qituvchining ijtimoiy mavqeい, obro‘-e’tibori, uni ijtimoiy himoyalash bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

4. Tibbiy. Mazkur aspekt faoliyatdagi qiyinchiliklarni o‘qituvchining ruhiy, jismoniy sog‘lomligi, turli kasallikkarni orttirishi, ularni salomatlikka ta’sirini aniqlab beradi.

O‘qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘rganishning kasbiy jihat murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, keng qamrovli tahlilni talab etadi. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: 1) faoliyatning ob’ektiv shart-sharoitlari. Ya’ni shaxsning o‘z faolligini namoyon qilishga to‘sqinlik qilinishi, boshqacha aytganda barerlarning mavjudligi; 2) shaxsning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida yuzaga keluvchi qiyinchiliklarning ob’ektiv shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) o‘qituvchi mehnatini tashkil etishda metodik ta’minotning yetarli bo‘lmasligi;

2) o‘qituvchi faoliyatini baholashdagi formalizm (yuzakilik);

3) o‘qituvchining ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi.

Pedagog shaxsining spesifik o‘ziga xosliklari bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar:

1) pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ichki kuch va imkoniyatlarning yetarli emasligi;

2) sohadagi islohotlar bilan bog‘liqlikda faoliyatni o‘zgartirish imkonini bermaydigan o‘z-o‘zini yo‘naltirish mexanizmining buzilishi;

3) salbiy psixologik holatlar (ishonchsizlik, asabiylilik, qo‘rquv, o‘z faoliyatidan qoniqmaslik va boshqalar).

O‘qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni talab etadi: 1) kasbiy rivojlanish

(konstruktiv strategiya); 2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi); 3) kasbiy deformatsiya (destrukтив strategiya).

Oliy ta’limda faoliyat yuritadigan professor-o‘qituvchilarni kasbiy yetuklik darajasiga ko‘ra shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin: adaptatsiya bosqichidagi, funksional barqarorlikka ega, kasbiy mahoratga ega va novator o‘qituvchilar.

Adaptatsiya bosqichidagi o‘qituvchilar uchun xos muammoli vaziyatlar kasbiy muhitga kirish, pedagogik jamoadagi meyor, qadriyat va an’analarni qabul qilish kabilar bilan bog‘liqdir. Mazkur murakkabliklar ob’ektiv tavsifga ega bo‘lib, mavhum aloqadorlik esa, yosh o‘qituvchi ta’lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda pedagogik faoliyatga doir meyor va qadriyatlarni real amaliyotga qo‘llay yoki qo‘llay olmasligida namoyon bo‘ladi.

Funksional barqarorlikka ega o‘qituvchilarda murakkab vaziyatlar pedagogik stereotiplarni murakkablashuvi bilan bog‘liqlikda yuzaga keladi. Bu esa o‘qituvchidan tashabbuskor qayta kasbiy o‘z-o‘zini namoyon etishni talab etadi.

Mahoratli pedagoglar uchun qiyinchiliklar innovatsion to‘sislarni yengib o‘tish bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyatdagi to‘sinqinliklar ko‘pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo‘yish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tipologiya bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda bir yoki bir necha strategiyani qo‘llash maqsadga muvofiq. Masalan, yosh o‘qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar eng avvalo, ularning kasbiy rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarni hal etishda ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘ziga ishonch, mas’uliyatni qaror toptirish, shuningdek, o‘zgaruvchan vaziyatlarda muvafaqqiyatli harakatlana olish strategiyalarini talab etadi.

Defektologik ta’lim, oliy pedagogik ta’lim sohasi, psixik-jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun kadrlar tayyorlash tizimi asosan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida amalga oshiriladi. Ta’lim muassasasi baka-lavriatida defektolog, magistraturada esa - oligofrenopedagog va logoped ixtisosliklari beriladi. Respublikamizda yagona bo‘lgan defektologiya fakultetida, «Korreksion pedagogika» va «Maxsus ta’lim metodikasi» kafedralarida maxsus ta’lim sohasida respublikamizning butun ilmiy salohiyati jamlangan deyish mumkin. Bu yerda 2 nafar fan doktori, 14 nafar fan nomzodi faoliyat yuritadi. Fakultet mamlakatimizdagi 86 ta maxsus maktab va maktab-internat, shuningdek, 500 dan ortiq maktabgacha ta’lim muassasalari uchun kadrlar tayyorlaydi. Aytish joizki, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish tizimining sifati, bu toifa bolalarning keyingi ijtimoiylashuvi mazkur fakultet bntiruvchilari: bakalavr va magistrlarning kompetensiyasiga, ularning kasb mahoratiga bevosita bog‘likdir.

Pedagogika fanlari nomzodi N.Sh.Bekmuratov tomonidan tashkil qilingan so‘rov natijalari shuni kursatdiki,-bugungi kunda faoliyat yuritayotgan fakultetning 178 nafar bitiruvchisi defektolog kasbini juda qizikarli va mexnat bozorida talab qilinadigan kasb, deb etirof etgan. So‘rovda qatnashgan defektolog talabalarning 84% i bu kasb ularga ma’qul kelgani, tanlovda adashmaganliklarini ta’kidlagan.

Ta’limning mazkur yo‘nalishi bo‘yicha tayyorgarlik darajasini talabalarning 60%i «yaxshi», 10 %i «a’lo» va 30% i «qoniqarli» baholagan.

Shunga qaramay, ish beruvchi (maxsus ta’lim muassasalarini rahbarlari)larning 35% i bitiruvchilar OTMda olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha mustaqil ishlashi lozim; 44% i esa olingan bilimlar hajmini yetarli emas, deb biladi, 51 % i maxsus ta’lim metodikasi va korreksion-rivojlantiruvchi ishlar bo‘yicha olingan bilimlarni amalda qullash kompetensiyasi yetishmasligini tilga oladi.

Aniq nazariy va amaliy muammolar yechimiga qaratilgan guruh yoki yakka tartibdagi loyihalarning talabalar tomonidan ishlab chiqilishi va implementatsiya metodikasi amaliyotga tatbik qilinmagan. Holbuki, ta’limga bu kabi yondashuvda talaba (yoki talabalar guruhi) muammoni aniqlash va hal qilish yollarini topish, keyin yetakchi mutaxassislar oldida o‘z «loyihasini himoya qilish» boyicha takdimot o‘tkazish topshirigini oladi. Bu kabi loyihalar keyinroq bitiruvmalakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Ta’lim jarayonining umumiy tizimida talabalarning mustaqil bilish faoliyati shu qadar ahamiyatliki, usiz mutaxassisning kasbiy kompetentligini amalda shakllantirib bo‘lmaydi.

Talabaga o‘qituvchini, o‘zi tanlagan ixtisoslik yo‘nalishi boyicha yetakchi ekspertni, jumladan, boshqa OTM yoki ITI xodimini mustaqil tanlash imkoniyatini tavdim etish amaliyoti ham yo‘q. Holbuki, xorijda mazkur faoliyat bo‘yicha shug‘ul-lanadigan maxsus maslahat markazlari mavjud. Respublikada oliy ta’lim muassasalararo xamkorlikni kengaytirish, mutaxassislar ma’lumotlar bazalarini shakllantirish o‘rinli bo‘lardi. Bu esa talabalarning o‘zlarini qiziktirgan yo‘nalish va mavzular bo‘yicha boshqa OTM o‘qituvchilarini ma’ruzalarida bo‘lishlariga imkon yaratadi. O‘quv fanlarini o‘zaro boyitish yo‘lidan rivojlantirish sharoitida bu yanada katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy universitet bitiruvchisi turdosh mutaxassisliklar bo‘yicha ishlarni bajarish, yangi texnologiyalarga erkin moslashish, zaruratga ko‘ra, malakasini oshirish, ixtisosligini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishi lozim.

Mutaxassisga qoyiladigan talablar majmuida axborot oqimida erkin yo‘nalish tanlay olish va mustaqil ta’lim hamda bilim olish ko‘nikmalarining ahamiyati tobora ortib bormokda. Talabalarni axborot bilan ishslash: ishonchli manbalarni izlash, qayta ishslash va taxlil qilish, shuningdek, olingan natijalarni takdim qilish metodlariga o‘rgatishga oid ixtisoslashtirilgan kurslarni joriy etish zarur. Bular xorijiy yetakchi ta’lim muassasalarining ko‘pchiligidagi faol qo‘llanib keladi. Axbo-rotning turli manbalari va vositalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari bilan erkin va tez ishlay olish malakasi zamonaviy yosh

mutaxassislar uchun juda muhim. Shu sababli raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ularni o‘zgaruvchan dunyo sharoitlariga moslashishiga kodir bo‘lgan yangi texnologiyalardan foydalanish vositalari, usullari va metodlari bilan qurollantirishdan iboratdir.

Mutaxassisga qoyiladigan talablar majmuida axborot oqimida erkin yo‘nalish tanlay olish va mustaqil ta’lim hamda bilim olish ko‘nikmalarining ahamiyati tobora ortib bormokda. Talabalarni axborot bilan ishslash: ishonchli manbalarni izlash, qayta ishslash va taxlil qilish, shuningdek, olingan natijalarni takdim qilish metodlariga o‘rgatishga oid ixtisoslashtirilgan kurslarni joriy etish zarur. Bular xorijiy yetakchi ta’lim muassasalarining ko‘pchiligida faol qo‘llanib keladi. Axbo-rotning turli manbalari va vositalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari bilan erkin va tez ishlay olish malakasi zamonaviy yosh mutaxassislar uchun juda muhim. Shu sababli raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash ularni o‘zgaruvchan dunyo sharoitlariga moslashishiga qodir bo‘lgan yangi texnologiyalardan foydalanish vositalari, usullari va metodlari bilan qurollantirishdan iboratdir.

«Teng-tengiga» o‘qitish metodlari xali keng qo‘llanilayotgani yuq. Bunda yuqori kurs talabalari yoki magistrlar yetakchi (ustoz) rolini bajaradi.

Talabalar o‘rtasida volonterlik faoliyati yetarlicha keng tarqalmagan. Mazkur faoliyat to‘g‘ri tashkil kilinganida talabalar o‘zlarining alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishslashga oid amaliy ko‘nikmalarini jiddiy tarzda oshirish, shuningdek, o‘zining yangi nazariy bilimlarni egallashga motivatsiyasini kuchaytirish, bulg‘usi kasbida yaxshiroq yo‘nalganlik kasb etish va OTM ta’lim jarayonida faolroq ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqorida yeanab o‘tilganlar OTM ta’limini takomillash-tirishning ayrim yo‘nalishlarigina, xolos. O‘qituvchi-defektologlar kasbiy tayyorgarlik sohasi yangi g‘oya, konsepsiyalarga muhtojki, ulardan foydalanish bilan ta’lim bolalikdan nogironlarni yuqori malakali mutaxassislar yordamida o‘qitishning xalqaro darajasiga ko‘tarilishi mumkin bo‘ladi.

## **2. Defektologlar tayyorlashning huquqiy-me’yoriy va tashkiliy asoslari**

Mamlakatimizda «Defektologiya» ta’lim yo‘nalishi boyicha oliy ta’lim modeli, uning maqomi va to‘zilishi ko‘p jihatdan oliy ta’lim an’analari, o‘rganiladigan fanlar mazmuni esa –defektologyaning fan va amaliy soha sifatida erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Mazkur modelga muvofiq ta’limning birinchi bosqichi bakalavr darajasini berishni ko‘zda tutadi. Bakalavr darajasi umumiylashtirilgan kasbiy ma’lumotolishni ta’minlaydi. Ko‘p bosqichli tizimning ikkinchi bosqichida – magistr darajasi beriladi. Bu darajani olish uchun bakalavriat bosqichini tamomlagandan keyin ikkiyillik ta’lim kursini o‘tash lozim. Magistrlik dasturlari o‘rganiladigan fan sohalarining biri boyicha ixtisoslashtirilgan ta’lim olishdan iborat.

O‘zbekistan Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» Qonuniga muvofiq ta’lim sifati Davlat ta’lim standartlari (DTS) bilan ta’milanadi. Ularda ta’lim jarayonining tamoyillari, o‘quv dasturining tozilishi va mazmuni, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, majburiy komponentlar (O‘quv fanlari ro‘yxati).

Ta’lim natijalari va kompetensiyalar tavsifi haqida bat afsil axborot jamlanadi. DTS shunday huquqiy xujjat sanaladiki, uning asosida OTM faoliyati belgilanadi. Undan OTM ma’muriyati kabi davlat nazorat organlari tomonidan ham boshqaruv hujjati sifatida foydalaniladi.

DTS asosida o‘quv rejalar iishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Garchi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim standarti bo‘lajak mutaxassis o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan fanlar ro‘yxatini, har bir fanga ajratiladigan o‘quv soatlari hajmini o‘z ichiga olsa-da, bu ruyxatni O‘quv reja deb hisoblab bo‘lmaydi. Zero, unda o‘quv topshiriqlarining kurs va semestrler boyicha taqsimlanishi ko‘zda tutilmaydi. Bu maqsadga faqat o‘quv rejada erishiladi, o‘quv reja ham davlat hujjati sanaladi.

O‘quv reja, avvalo, mutaxassislik nomi belgilanadi, egallanadigan malaka mazmuni va o‘qish muddatida kursatiladi. Keyin u yoki bu yo‘nalish boyicha mutaxassis tayyorlash uchun zaruriy fanlar royxati keltiriladi.

O‘quv fanlari beshta asosiy guruhga bo‘linadi. Bular:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar;
- umumkasbiy va mutaxassislik fanlar;
- Ixtisoslik fanlar;
- Ta’limning qo‘sishimcha turlari;

Rejada, shuningdek, u yoki bu fanning qaysi kurs va semestrda , uni o‘rganish uchun ajratiladigan soatlar mikdori, xisobturi (sinov, imtihon, reyting) kursatiladi. Majburiy fanlar bilan bir qatorda OTM kafedralari talabalarga tanlov fanlarini, OTM tomonidan belgilangan ixtisoslik fanlarini ham taklif qiladi. Bundan tashqari, mutaxassislik o‘quv rejasida amaliyot turlarini o‘tash muddatlari, kurs va BMIIlarni tayyorlash va himoya qilish, davlat attestatsiyalarini o‘tkazish muddatlari kursatiladi. Bu ishlarning hajmi ma’lum muddatlarga joylashtirilishi lozim.

Bakalavriatning defektologiya ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida beshta fan bloki ajratiladi. Bular:

1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (rejaga muvofiq 1704 o‘quv soati hajmida). Gumanitar fanlar sirasiga O‘zbekiston tarixi, xuquqshunoslik va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, falsafa (etika, estetika, mantiq), ma’naviyat asoslari va dinshunoslik, madaniyatshunoslik, iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, pedagogika va psixologiya, milliy g‘oya, siyosatshunoslik, o‘zbek va chet tili, jismoniy madaniyat va sport kabi fanlar kiritiladi.

2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (858 soat). Matematik-kommunikativ kurs o‘z ichiga quyidagi fanlarni oladi: oliy matematika asoslari, informatika va axborot texnologiyalari. Tabiiy fanlar sifatida talabalar yosh fiziologiyasi va gigiena, ekologiya va uni muhofaza qilish, anatomiya (odam genetikasi), tabiiy fanlar zamonaviy konsepsiysi kabilarni urganadi.

3. Shunday qilib, O‘zbekistonda oliy defektologik ta’lim talabalarning keng umuminsoniy va umummadaniy tayyorgarligi bilan ajralib turadi. Ko‘rsatib o‘tilgan bloklarda umumta’lim fanlarining hissasi jami O‘quv soatlarining 27,6% ini tashkil qiladi. Bu xalqaro amaliyotda qabul qilingan standartlarga umuman

mos keladi. Bunda auditoriya soatlarining 59,1% i amaliy mashg‘ulotlarga ajratiladi, talabalarning mustaqil ishlari auditoriya soatlarining 80,3% ini tashkil qiladi.

4. Umumkasbiy fanlar: psixologik-pedagogik fanlar (umumiyligini pedagogika, umumiyligini psixologiya, maxsus pedagogika, maxsus psixologiya). Umumiyligini kurslar: defektologiyaning klinik asoslari, ona tili, bolalar adabiyoti va folklor). O‘qitish metodikalari kursi: rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tashxislash, matematika o‘qitish maxsus metodikasi, nogiron bolalar diagnostikasi, ona tili o‘qitish maxsus metodikasi, korreksion ishlari metodikasi, tarbiyaviy ishlari maxsus metodikasi, tasviriy san’at o‘qitish maxsus metodikasi, mehnat o‘qitish maxsus metodikasi, tabiatshunoslik o‘qitish maxsus metodikasi.

Bu blokdagi soatlar 3672 yoki umumiyligini mikdorining 39,5% ini tashkil qiladi. Mustaqil ta’lim auditoriya ishining 45,3% iga tengdir.

5. Ixtisoslik fanlari: oligofrenopedagogika, logopediya va surdopedagogika. Mazkur fanlarni o‘qitishga 660 soat yoki umumiyligini o‘quv yuklamaning 7% i ajratiladi. Auditoriya va mustaqil ishlarga teng - 330 soatdan ajratiladi.

6. Qo‘srimcha fanlar: tibbiy tayyorgarlik, chet tili, soglom turmush tarzi asoslari. Bu fanlarni o‘qitishga, jami 450 soat, ya’ni o‘quv yuklamasining 4,8% foizi ajratiladi. 810 soat pedagogik amaliyatga, 216 soat bitiruv-malakaviy ishlarga va 918 soat davlat attestatsiyasiga ajratiladi.

Mutaxassislik bo‘yicha ixtisoslik fanlariga jami bo‘lib 4332 soat ajratiladi. Bu o‘quv yuklamaning 46,6% ini tashkil qiladi.

O‘quv reja asosida o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi. Turli guruhlarda yoki turli mutaxassislik yo‘nalishlarida o‘qitiladigan ayni bir fanga ajratilgan soatlar, ixtisoslik yo‘nalishining o‘ziga xosliklari (logo, surdo) va sh.k. nuqtai nazaridan detallashtirilishi kerak. Aynan bir fan boyicha aynan bitta o‘qituvchi bir necha ishchi dasturga ega bo‘lishi mumkin. Ular o‘qituvchiga materialni ta’limning muayyan sharoitlaridan kelib chiqqan holda taqsimlashda qo‘l keladi.

Ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish taqvim rejalarini uqituvchi tomonidan ishchi dastur asosida ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Barcha tipdaggi OTM da ta’limni tamomlash uchun bitiruvchilar ish beruvchilar ishtirokida yakuniy imtihon (attestatsiya) topshirishi shart. Bunda ish beruvchilar talabalar tayyorlashning muvofiqligi va sifatini baholash imkoniga ega bo‘ladi. Bakalavriat talabalar bitiruv-malakaviy ishini, magistraturada esa magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashi va ximoya qilishi lozim.

Mamlakatimizda «Defektologiya» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim modeli, uning maqomi va strukturasi ko‘p jihatdan oliy ta’lim an’analari bilan, o‘rganiladigan fanlar mazmuni esa – defektologiyaning fan va amaliy soha sifatida erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Mazkur modelga muvofiq, ta’limning birinchi bosqichi bakalavr darajasini (talaba 4 yillik dastur bo‘yicha ta’lim oladi) berishni ko‘zda tutadi. Bakalavr darjasini umumiyligini kasbiy ma’lumot olishni ta’minlaydi. Ko‘p bosqichli tizimning ikkinchi bosqichi – magistr

darajasini berishni ko‘zda tutadi. Bu darajani olish uchun bakalavriat bosqichini tamomlagandan keyin ikki yillik ta’lim kursini o‘tash lozim. Magistrlik dasturlari o‘rganiladigan fan sohalarining biri bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim olishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq ta’lim sifati Davlat ta’lim standartlari (DTS) bilan ta’milnadi, ularda ta’lim jarayonining qurilish tamoyillari, o‘quv dasturining to‘zilishi va mazmuni, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, majburiy komponentlar (o‘quv fanlar ro‘yxati), ta’lim natijalari va kompetensiyalar tavsifi haqida batafsil axborot jamlanadi. DTS shunday huquqiy hujjat sanaladiki, uning asosida OTM faoliyati belgilanadi, undan OTM ma’muriyati kabi davlat nazorat organlari tomonidan ham boshqaruv hujjati sifatida foydalaniladi.

DTS asosida o‘quv rejalarini ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Garchi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim standarti bo‘lajak mutaxassis o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan fanlar ro‘yxatini, har bir fanga ajratiladigan o‘quv soatlari hajmini o‘z ichiga olsa-da, bu ro‘yxatni o‘quv reja deb hisoblab bo‘lmaydi, zero unda o‘quv topshshiriqlarining kurs va semestrlar bo‘yicha taqsimlanishi ko‘zda tutilmaydi. Bu maqsadga faqat o‘quv rejada erishiladi, o‘quv reja ham davlat hujjati sanaladi. O‘quv reja avvalo mutaxassislik nomini belgilaydi, malaka va o‘qish muddatini belgilaydi. Keyin u yoki bu yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis tayyorlash uchun zaruriy fanlar ro‘yxati belgilanadi. O‘quv fanlari beshta asosiy guruhgaga bo‘linadi. Bular:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar;
- umumkasbiy va mutaxassislik fanlari;
- ixtisoslik fanlari;
- ta’limning qo‘srimcha turlari.

Rejada shuningdek u yoki bu fanning qaysi kurs va semestrda o‘qitilishi, uni o‘rganish uchun ajratiladigan soatlar miqdori, hisobot turi (sinov, imtihon, reyting) ko‘rsatiladi. Majburiy fanldar bilan bir qatorda OTM kafedralari talabalarga tanlov fanlarini, OTM tomonidan belgilangan ixtisoslik fanlarini ham taklif qiladi. Bundan tashqari, mutaxassislik o‘quv rejasida amaliyot turlarini o‘tash muddatlari, kurs va diplom loyihalari (ishlari) ni tayyorlash, bu loyihalarni himoya qilish va davlat attestatsiyalarini o‘tkazish muddatlari ko‘rsatiladi. Bu ishlarning butun hajmi ma’lum umddatlarga joylashtirilishi lozim.

Bakalavriyatning defektologiya ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida beshta fan bloki ajratiladi. Bular:

1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (rejaga muvofiq 1704 o‘quv soati hajmida). Gumanitar fanlar sirasiga O‘zbekiston taxizi, huquqshunoslik va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, falsafa (etika, estetika, mantiq), ma’naviyat asoslari va dinshunoslik, madaniyatshunoslik, iqtisodiy nazariya,

sotsiologiya, pedagogika va psixologiya, milliy g‘oya, siyosatshunoslik, o‘zbek va chet tili, jismoniy madaniyat va sport kabi fanlar kiritiladi.

2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (858 soat). Matematik-kommunikativ kurs o‘z ichiga quyidagi fanlarni oladi: oliy matematika asoslari, informatika va axborot texnologiyalari. Tabiiy fanlar sifatida talabalar yosh fiziologiyasi va gigiena, ekologiya va uni muhofaza qilish, anatomiya (odam genetikasi), tabiiy fanlar zamonaviy konsepsiysi kabilarni o‘rganadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda oliy defektologik ta’lim talabalarning keng umumiomiy va umummadaniy tayyorgarligi bilan ajralib turadi. Ko‘rsatib o‘tilgan bloklarda umumta’lim fanlarining hissasi jami o‘quv soatlarining 27,6% ini tashkil qiladi, bu xalqaro amaliyotda qabul qilingan standartlarga umuman mos keladli. Bunda auditoriya soatlarining 59,1% i amaliy mashg‘ulotlarga ajratiladi, talabalarning mustaqil ishlari auditoriya soatlarining 80,3% ini tashkil qiladi.

3. Umumkasbiy fanlar: psixologik-pedagogik fanlar (umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, maxsus pedagogika, maxsus psixologiya). Umumiy nazariy kurslar: defektologianing klinik asoslari, ona tili, bolalar adabiyoti va folklor). O‘qitish metodikalari kursi: rifojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tashhislash, matematika o‘qitish maxsus metodikasi, Diagnostika detey s nedostatkami v razvitii, ona tili o‘qitish maxsus metodikasi,, korreksion ishlar metodikasi, tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi, tasviriy san’at o‘qitish maxsus metodikasi, mehnat o‘qitish maxsus metodikasi, tabiatshunoslik o‘qitish maxsus metodikasi.

Bu bloka ajratilgan soatlar 3672 yoki umumiy soatlar miqdorining 39,5% ini tashkil qiladi. Mustaqil ta’lim auditoriya ishining 45,3% iga tengdir.

4. Ixtisoslik fanlari: oligofrenopedagogika, logopediya va surdopedagogika. Mazkur fanlarni o‘qitishga 660 soat yoki umumiy o‘quv yuklamaning 7% i ajratiladi. Auditoriya va mustaqil ishlarga teng – 330 soatlan ajratiladi.

5. Qo‘srimcha fanlar: tibbiy tayyorgarlik, chet tili, sog‘lom turmush tarzi asoslari. Bu fanlarni o‘qitishga, jami 450 soat, ya’ni o‘quv yuklamasining 4,8% foizi ajratiladi.

Qo‘srimcha, 810 soat pedagogik amaliyotga, 216 soat bitiruv malakaviy ishga va 918 soat davlat attestatsiyasiga ajratiladi.

Mutaxassislik bo‘yicha ixtisoslik (maxsus) fanlarga jami bo‘lib 4332 ajratiladi, bu o‘quv yuklamaning 46,6% ini tashkil qiladi.

O‘quv reja asosida o‘quv kurslarini o‘qitish dasturlari ishlab chiqiladi. Turli kurslarda (bosqichlarda), turli guruhlarda yoki turli mutaxassislik yo‘nalishlarida o‘qitiladigan ayni bir fan ajratilgan soatlar, ixtisoslik yo‘nalishining o‘ziga xosliklari (logo, surdo) va sh.k. nuqtai nazaridan detallashtirilishi kerak. Aynan bir fan bo‘yicha aynan bitta o‘qituvchi bir necha ishchi dasturga ega bo‘lishi mumkin, ular o‘qituvchiga materialni ta’limning muayyan sharoitlaridan kelib chiqqan holda taqsimlashda qo‘l keladi.

Maruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish kalendar (taqvim) rejalar o‘qituvchi tomonidan ishchi dastur asosida ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Standartlar va ta’lim jarayonini tashkil qilishga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, o‘quv yili davomida bir necha marta talabalar: bakalavr va magistrarning semestr davomida o‘qiladigan har bir fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oraliq baholash o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim muassasalarining barcha tiplarida 1999 yildan reyting tizimi (minimum – 56 ball, maksimum – 100 ball) joriy qilingan. Tizim talabalarning mustaqil o‘qishlari uchun akademik soatlar ajratish, shuningdek har bir semestr oxirida talabalar bilimlarini baholashni ko‘zda tutadi. Bunda qo‘yidagicha reyting sxemasidan foydalaniladi: 86-100 ball – «a’lo» (5); 71-85 ball – «yaxshi» (4); 56-70 ball – «qoniqarli» (3); 55 dan kam ball – «qoniqarsiz».

Baholash natijalari asosida o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarni ta’lim dasturining keyingi yiliga o‘tkazish qida qaror chiqariladi. Yillik o‘quv dasturi talablari bajarilmagani holda ta’limning keyingi yiliga o‘tkazish mumkin emas.

Barcha tipdaggi OTM da ta’limni tamomlash uchun bitiruvchilar ish beruvchilar ishtirokida majburiy yakuniy imtihon (attestatsiya) topshirishi shart. Bunda ish beruvchilar talabalar tayyorlashning muvofiqligi va sifatini baholash imkoniga ega bo‘ladi.bakalavriatni tamomlash uchun talabalar shuningdek bitiruv malakaviy ishini, magistralar esa magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashi va himoya qilishi lozim.

### **3. «Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishning innavatsion muhitini loyihalashtirish» kursining maqsadi va vazifalari**

DTS ga muvofiq defektologiya fakulteti bitiruvchilari quyidagi kasbiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin:

- o‘qituvchilik: maxsus mакtab, mакtab-internatlarda;
- tarbiyachilik: maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida;
- o‘quv-metodik: mazkur yo‘nalishda ta’limni amalgalash oshiradigan vazirliklar metod kabinetlarida, ularning sohaviy bulinma va boshqarmalarida;
- ilmiy-tadqiqotchilik: ilmiy-tadqiqot muassasalarida va sh.k.

Shunga ko‘ra, maxsus fanlarni o‘qitish bir paytning o‘zida maxsus pedagogika va psixologiya bo‘yicha fundamental bilimlar berish, umumta’lim va maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari hamda mакtablarda, mакtabdan tashqari muassasalarda tarbiya va o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi, psixologik-pedagogik tashxis va logopediyaga o‘qitish; ilmiy-tadqiqotchilik malaka-larini, jamoatchilik va hamkasblari o‘rtasida ma’rifiy va targ‘ibotchilik faoliyatini yuritish, defektologik bilimlar, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlari sohasida targ‘ibot ishlarini olib borish malakalarini shakllantirishni o‘z ichiga olishi lozim.

Bu, o‘z navbatida, «Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi» kursining maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Kursning maqsadi magistrlarni nazariy va amaliy jihatdan bakalavr-defektologlarga, «amaliy defektolog» mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiyotgan shaxslarga, malaka oshirish utayotgan, hamda tegishli mutaxassislik boyicha kollej va litseylarda tahsil olayotgan uqituvchilarga dars berish, shuningdek, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilishga tayyorlashdan iborat.

Kursning vazifalari:


- magistrning o‘qitish sohasidagi kompetentligini: o‘rta maxsus kasb-hunar va oliv ta’lim muassasalarida o‘qitish, bu faoliyatning huquqiy-meyoriy ta’minoti asoslariga oid bilmalarini shakllantirish;

- magistrantni mutaxassislik fanlarini o‘qitishni tashkil qilish shakllari bilan tanishtirish hamda uning Maruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari davomida ta’lim jarayonini rejalashtirish malakalarini shakllantirish;

- magistrantni mutaxassislik fanlarini o‘qitish hamda baholash metodlari bilan tanishtirish hamda uning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim oluvchilarining o‘qishdagi yutuqlarini monitoring va tashxis qilish, ta’lim natijalarini baxolashning zamonaviy vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq malakalarini shakllantirish;

- magistrantning maxsus va inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlari sohasida dunyoqarash kompetensiyalarini shakllantirish.

«Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi» kursi zamonaviy umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, falsafa fanlari yutuqlariga tayanadi. Kursni o‘rganishda ta’lim dasturi, oliv ta’limning davlat standarti, O‘quv reja, Maruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, pedagogik amaliyot, bitiruv-malakaviy ish, sinov, imtixon, reyting, kurs ishi, referat, konsept, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari kabi tushunchalar yoritiladi. Kurs oliv va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarida ta’lim berish va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik kobiliyatini o‘zlashtirishga tayyorlashga yo‘naltirilgandi.



### Nazorat uchun savollar

1. Defektologlar tayyorlash jarayonini boshqaruvchi xuquqiy-meyoriy hujjatlar ierarxiyasini yoritib bering.
2. Mutaxassislik fanlari O'quv rejada qanday o'rinn tutadi va qanday toifalarga bo'linadi?
3. Bakalavr defektologlarning kasbiy faoliyati va mutaxassislik fanlarini o'qitishda qanday bog'liqlik mavjud?
4. O'zbekistonda defektologlar tayyorlashni takomillash-tirishning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
5. « Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishning innovatsion muxitini loyixalashtirish » kursi-ning murakkabligi nimalardan iborat?
6. Davlat ta'lim standartlarida qanday axborotlar jamlangan bo'ladi?
7. Ixtisoslik va umumkasbiy fanlarni bir-biridan farqi nimada?
8. O'quv reja nimani nazarda tutadi?
9. Dastur nima asosida tuziladi?
10. O'quv adabiyotlarining qanday shakllari va turlari mavjud?
11. An'anaviy o'quv adabiyotlar deganda nimani tushunasiz?
12. Darslik nima?
13. Ma'lumotlar to'plami deganda nimani tushunasiz?
14. Lug'at bu.....?
15. Uslubiy ko'rsatma haqida ma'lumot bering?
16. Ma'lumotlar banki nima?
17. Metodik qo'llanma bu....?
18. O'quv adabiyotlariga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. – 160 s.
2. Geydebrandt K.F. Uchebnyy plan svobodnoy valdorfskoy shkoly. \\ Chastnaya shkola. – 1997. № 2
3. Guzeev V. V. Integralnaya obrazovatelnaya texnologiya. – M., 1999.
4. Guzeev V.V. Obrazovatelnaya texnologiya: ot priema do filosofii. M.: Sentyabr, 1996.
5. Guzeev V.V. Planirovanie rezul'tatov obrazovaniya i obrazovatelnaya texnologiya.- M.: Narodnoe obrazovanie, 2000.
6. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.
7. Ijtimoiy pedagogika. / Egamberdieva N.- T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
8. Jukova Ye.D. Texnologiya organizatsii i realizatsii samostoyatelnoy raboty studentov: rabochaya tetr. – Ufa : Izd-vo BGPU, 2004.
9. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya. Sovremennaya interpretatsiya. – M., 2001.
10. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
11. Kashlev S.S. Sovremennye texnologii pedagogicheskogo protsessa. M.: “Universitetskoe”, 2000.
12. Levites D.G. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. Novosibirsk, 1999.
13. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006.
14. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2006.
15. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Y.YE, Yakubjonova D.B. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Fan va texnologiya” T.: 2013.
16. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
17. Yarkulov R., Maxmudova M.F. Vysshiiy pedagogicheskiy obrazovatelnyyu protsess. Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix institutov i universitetov. TGPU imeni Nizami. T., 2007.

## **2 - Mavzu: Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda innovatsion ta’lim**

### **Reja:**

1. “O‘qitish metodikasi” va “Pedagogik texnologiya” tushunchalarining tavsifi.
2. “O‘qitish metodikasi va “Ta’lim texnologiyasi” tushunchalarining qiyosiy taxlili.
3. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishda an’anaviy innovatsion yondoshuvni uyg‘unlashtirish zaruriyati.
4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion ta’lim metodalarini qo‘llash.

### **Asosiy atama va tushunchalar**

Innovatsiya, ta’lim metodlari, o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, didaktik oyinli texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, an’anaviy dars, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbati, ishbop oyin metodi, rolli oyin metodi, baxs-munozara metodi, muammoli vaziyat, loyiha metodi, muhandislik-pedagogik faoliyat, ta’lim oluvchi faoliyat, yo‘naltiruvchi matn.

**1.** Zamonaviy sharoitda yaxlit pedagogik jarayon, uning alohida tarkibiy qismlari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liqlikda “metodika” va “texnologiya” tushunchalari ko‘p qo‘llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar mohiyatini tavsiflashda ham xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, pedagogik sohada faoliyat yurituvchi shaxslar o‘rtasida ham ko‘pgina tortishuv, bahsmunozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni umumlashtirish orqali mazkur tushunchalarning aniq ta’rifini shakllantirish mumkin.

Umumiy ma’noda “metodika” tushunchasi ma’lum bir ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan metod va usullar yig‘indisidir. Ko‘pgina izohli lug‘atlarda ham “Metodika – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja

(qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni ifoda etishi ko‘rsatib o‘tilgan<sup>4</sup>.

“Metodika” tushunchasiga berilgan xilma-xil ta’riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

1) metodika – bu o‘qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari;

2) ma’lum bir faoliyatini amalgaga oshirish uchun zarur bo‘lgan metod va usullar yig‘indisi;

3) bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalgaga oshirishga yordam beruvchi usullar yig‘indisi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi metodika ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”<sup>5</sup>. G.M.Kodjapirova, A.Y.Kodjapirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalgaga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”<sup>6</sup>.

O‘qitish metodikasiga qo‘yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

1) hayot bilan uyg‘unlik;

2) qayta ishlab chiqishga yo‘nalganlik;

3) aniqlik;

4) rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;

5) asoslanganlik;

6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o‘qitish metodikasi o‘zida:

- ta’limning maqsad va vazifalarini – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;

- ta’limning qonuniyat va tamoyillarini;

- ta’lim mazmunini;

- ta’limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;

- ta’limning umumiyligi va xususiy metodlarini;

- o‘quv vositalari;

- o‘qitish natijasini aks ettiradi.

<sup>4</sup> Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – B.311;

Ojegov S. I., Shvedova N. Yu. Tolkovyy slovar russkogo yazyka: 80 000 slov i frazeologicheskix výrajeni / Rossiyskaya akademiya nauk. Institut russkogo yazyka im. V. V. Vinogradova. — 4-ye izd., dopolnennoe. — M.: Azbukovnik, 1999; Slovar biznes-terminov. Akademik.ru. 2001.

<sup>5</sup> Stolyarenko A.M. Psixologiya i pedagogika. M.: YuNITI-DANA, 2008. – S.368.

<sup>6</sup> Kodjapirova G.M. i Kodjapirova A.Yu. Slovar po pedagogike. – M.: IKS «MarT», 2005. – S.174.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, quyida o‘qitish metodikasi mohiyatini yoritib beruvchi asosiy tushunchalarga izoh berib o‘tamiz:

- 1) *o‘rgatish* – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati;
- 2) *o‘rganish* – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulqatvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi;
- 3) *o‘qitish* – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o‘zaro harakati;
- 4) *ta’lim* – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi;
- 5) *bilim* – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi;
- 6) *ko‘nikma* – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallah;
- 7) *malaka* – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi;
- 8) *maqsad* – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi;
- 9) *mazmun* – o‘qitish jaarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi;
- 10) *tashkil etish* – qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon;
- 11) *shakl* – o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq;
- 12) *metod* – o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li;
- 13) *vosita* – o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniладиган об’ект;
- 14) *natija* – o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqticodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o‘zgapishlapning po‘y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo‘lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta’lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Texnologiya” yunoncha co‘z bo‘lib, “techne” – mahorat, can’at va “logos” – tushuncha, ta’limot, fan ma’nocini anglatadi. “Ta’lim texnologiyaci” iboracining ma’noci – (inglizcha “An educational technology”) ta’lim jarayonini

yukcak mahorat bilan can'at darajacida tashkil etish to‘g‘ricida ma’lumot beruvchi fan, ta’limot demakdir. Ayni vaqtda mazkur tushunchaning ta’rifi hamda uning mohiyati boracida yagona g‘oya mavjud emac. Bu nazariya mohiyatining yopitilishiga nicbatan turli yondashuvlar mavjud.

“Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (*YuNESKO*).

“Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalilaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi” (*M.V.Klarin*).

“Pedagogik texnologiya – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi”. (*G.K. Selevko*).

“Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o‘gitlar yig‘indisi bo‘lib, shakllar, metodlar, usullar, o‘qitish yo‘llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to‘plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi” (*B.T.Lixachev*).

“Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi” (*V.P.Bespalko*).

“Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi” (*I.P. Volkov*).

“Texnologiya – ishlov berish, holatni o‘zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlar yig‘indisi” (*V.M.Shepel*).

“Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon barqarorligini oshirib, bu jarayon ishtirokchicining cub’ektiv xucuciyatlaridan uni ozod qiladi”. (*V.M.Manaxov*).

“Pedagogik texnologiya -tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini kulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob’ektiv baholash uchun inson calohiyati hamda texnik vositalarning o‘zapo ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqcaddapini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtipish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmuidir”. (*M.O.Ochilov*).

“Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchilarga ta’sir ko‘rcatish va bu faoliyat mahculi sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni” (*N.Saidaxmedov*).

“Pedagogik texnologiya bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo‘naltipilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayonining mazmynidip” (*O.Q.Tolipov*).

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o‘zlashtipilgan nazapiy bilimlap

bilan yangi o‘zlashtipiladigan bilimlap opacida myctahkam bog‘lanishlapning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- *teng qiymatli (ekvivalent) amaliyat qoidaci*: ta’lim olyvchilapning ta’limjapayonidagi xatti-hapakatlapi test o‘tkazish yoki imtihon davpida ta’lim olyvchi tomonidan tashkil etilishi kytildigan xatti-hapakatlapga to‘la mos keladi;

- *o‘xshash amaliyat qoidaci*: ta’lim olyvchilap codip etilishi kytilayotgan xatti-hapakatlapini tashkil etish majbypiyatiga ega bo‘lmay, balki mohiyatan shynday bo‘lgan shapoitlapda mashq qilish imkoniga ega bo‘ladilap;

- *natijalapni aniqlash qoidaci*: ta’lim olyvchiga yning hap bip xatti-hapakatining mazmynini baholash natijalapi bo‘yicha ma’lymot bekish, mazkyp shaptga akcapiyat hollapda jopiy nazopatni tashkil qilish japayonida pioya etiladi;

- *pag‘batlantipish qoidaci*: talabaning maqbyl xatti-hapakatlapini pag‘batlantipib bopish, pedagogik faoliyat japayonida talaba tomonidan codip etilgan calbiy xatti-hapakatlap ychyn ynga tanbeh bepilmaydi, balki ylapni baptapaf etish ictagini yuzaga keltipyvchi amaliy ko‘pcatma bepiladi. Macalan, “yana bip marta ypinib ko‘p”, “yanada chyqyppoq o‘ylab ko‘p”, “macalani hal etishning yanada oconpoq yo‘li bor, yni topishga ypinib ko‘p” va hakozolap.

Ta’lim amaliyotida “pedagogik texnologiya” tushunchasi uch darajada qo‘llaniladi:

*Umumpedagogik (makro) daraja*. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo‘lib, ta’lim tizimining barcha turlarida qo‘llash imkonini beradi.

*Xususiy-metodik (mezo) daraja*. Ushbu daraja o‘zida ma’lum bir o‘quv fani, alohida ta’lim oluvchilar guruhi, ma’lum ixtisoslikka mansub pedagoglarga yo‘nalganlikni aks ettiradi.

*Lokal daraja (mikro)*. Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayonining alohida tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o‘quv ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaga xos yana bir muhim jihat uning alohida tasnifiy belgilarga ega bo‘lishidir.

*Har qanday pedagogik texnologiya quyida tasnifiy belgilarga to‘liq javob berishi lozim*:

1. Qo‘llanilish darajasi va tavsifi.
2. Falsafiy asosi.
3. Metodologik yondashuvi.
4. Rivojlanishning yetakchi omillari.
5. Tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiysi.
6. Shaxsni rivojlantirish sohasiga yo‘nalganligi va tuzilishi.
7. Mazmunli tavsifi.
8. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi.
9. Qo‘llaniladigan metodlari.

10. Tashkiliy shakllari.

11. Ta’lim oluvchiga yondashuv va o‘zaro harakat ta’siri.

12. Modernizatsion yo‘nalishi va an’anaviy tizimga munosabati.

13. Qo‘llanilish toifasi.

Quyida pedagogik texnologiyaning qo‘llanilish darajasi va tasnifiy belgilarining mohiyatini ifoda etuvchi ayrim misollarni keltirib o‘tamiz:

**I. Texnologiyaning nomlanishi: Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasi.**

**Texnologiyaning tasnifiy belgilari:**

- *qo‘llanilishi darajasi va tavsifi*: umumpedagogik darajadan mikrotexnologiya darajasigacha;
- *falsafiy asosi*: 1) insonparvarlik; 2) barcha xilma-xil konsepsiylar;
- *metodologik yondashuvi*: tizimlilik, shaxsga yo‘naltirilganlik, individuallik, faoliyatli yondashuv, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv;
- *rivojlanishning yetakchi omillari*: 1) sotsiogen; 2) psixogen;
- *tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiysi*: assosatsiativ-reflektorli + faoliyatli + rivojlantiruvchi + interiorizatorli;
- *shaxsni rivojlanirish sohasiga yo‘nalganligi va tuzilishi*: BMO (bilim, malaka, odat) + EAS (estetik-axloqiy soha) + O‘zBMS (o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sohasi)+HAS (harakatli-amaliy soha);
- *mazmunli tavsifi*: ta’limiy, tarbiyaviy, texnokratik;
- *ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi*: ijtimoiylashtirish;
- *qo‘llaniladigan metodlari*: 1) izlanishli; 2) xilma-xil tarbiya metodlaridan foydalanish;
- *tashkiliy shakllari*: 1) individual; 2) barcha tarbiya shakllari;
- *qo‘llaniladigan vositalari*: 1) audiovizual; 2) barcha tarbiya vositalari;
- *tarbiyalanuvchiga yondashuv va tarbiyaviy o‘zaro harakat tavsifi*: shaxsga yo‘naltirilgan;
- *modernizatsion yo‘nalishi va an’anaviy tarbiyaviy tizimga munosabati*: motivatsion, mazmunli, faoliyatli va qadriyatga yo‘naltirilgan funksiyani kuchaytirish asosida;
- *qo‘llanilish toifasi*: ommaviy, barcha toifadagi tarbiyalanuvchilar uchun<sup>7</sup>.

**II. Texnologiyaning nomlanishi: Falsafiy-antropologik yondashuv asosida talabalarning tarixiy tafakkurini shakllantirish texnologiyasi.**

**Texnologiyaning tasnifiy belgilari:**

- *qo‘llanilishi darajasi va tavsifi*: xususiy darajada qo‘llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya;
- *falsafiy asosi*: 1) antropologik; 2) ontologik; 3) dialogik;

<sup>7</sup> Qarang: Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012.

- *metodologik yondashuvi*: insonparvar, algoritmlı, amaliy yo‘naltirilgan, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv;
- *rivojlanishning yetakchi omillari*: 1) sotsiogen; 2) psixogen;
- *tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiysi*: assosiativ-reflektorli + faoliyatli + rivojlantiruvchi + bixevoiristik;
- *shaxsni rivojlantirish sohasiga yo‘nalganligi va tuzilishi*: BMO (bilim, ko‘nikma va malaka) + O‘zBMS (o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sohasi) + HAS (harakatli-amaliy soha);
- *mazmunli tavsifi*: umumta’limiy;
- *ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi*: ta’limiy (didaktik), tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;
- *qo‘llaniladigan metodlari*: 1) dialogli; 2) vaziyatli; 3) bir-biriga tushuntirish; 4) bir-biriga o‘rgatish; 3) mustaqil ish; 4) xarita bilan ishslash; 5) o‘yin; 6) izlanishli-tadqiqotchilik;
- *tashkiliy shakllari*: 1) individual; 2) guruhli; 3) juftliklarda ishslash; 4) jamoaviy;
- *qo‘llaniladigan vositalari*: 1) tarqatma materiallar; 2) hujjatli filmlar; 3) badiiy adabiyotlar; 4) multimedia;
- *talabaga yondashuv va tarbiyaviy o‘zaro harakat tavsifi*: shaxsga yo‘naltirilgan;
- *modernizatsion yo‘nalishi va an‘anaviy ta’lim tizimga munosabati*: ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyani kuchaytirish asosidagi pedagogik texnologiya;
- *qo‘llanilish toifasi*: umumiyo‘rta ta’lim maktablari talabalari uchun<sup>8</sup>.

## **II. Texnologiyaning nomlanishi: Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasi.**

### **Texnologiyaning tasnifiy belgilari:**

- *qo‘llanilish darajasi va tavsifiga ko‘ra*: lokal darajada qo‘llanilish tavsifiga ega mikrotexnologiya;
- *falsafiy asosiga ko‘ra*: qadriyatga yo‘naltirilgan, insonparvar;
- *tajribani o‘zlashtirishning ilmiy asosiga ko‘ra*: assosiativ-reflektorli va interiorizatorli;
- *shaxs rivojlanishining yetakchi omiliga ko‘ra*: sotsiogen va psixogen;
- *tuzilishi va mazmunli tavsifiga ko‘ra*: ijtimoiy, tarbiyaviy.
- *qo‘llaniladigan metod, usul va vositalariga ko‘ra*: muammoli, rivojlantiruvchi, dilogli<sup>9</sup>.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalari tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, mazkur tushunchalar o‘zaro aloqadorlik va umumiylilikka ega bo‘lishi bilan birga ayrim o‘ziga xosliklar bilan ham tavsiflanadi.

<sup>8</sup> Qarang: Mixliev A. O‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012.

<sup>9</sup> Yusupova G. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011. – B.24-25.

**2.** Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuvning keng miqyosda tatbiq etilishi pedagogikaning alohida sohasi hisoblangan "metodika" bilan "texnologiya" tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Chunki aksariyat hollarda mazkur tushunchalarning mohiyatini aniq farqlay olmaslik natijasida ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish, yoxud ularning o'rnini almashtirgan holda qo'llanilishi ko'zga tashlanmoqda.

*Albatta, "metodika" va "texnologiya" tushunchalari mohiyatinini tushuntirishda aniq chegara qo'yish bir oz murakkab masala. Biroq ularning o'ziga xosliklarini tahlil etish, ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi.*

Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiyligini qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o'kuv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayoni-ning umumiyligini qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shug'ullanadi.

Ta'limni texnologiyalashtirish – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarini ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiyligini, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarini bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon

darajasida bo‘lishi doimo o‘qituvchi hamda talabaning diqqat markazida turadi. O‘qituvchi ta’lim natijasini tez-tez tekshirib, talabalarni o‘zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta’limning zaruriyligini, ular ta’lim jarayonining haqiqiy sub’ektiga aylangan paytida sezishadi.

*So‘nggi vaqtarda “texnologiya” tushunchasini metodikadan ustun qo‘yishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Aslida “metodika” tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika – bu metatexnologiy. Agar mazkur tushunchani o‘quv jarayoniga tatbiq etadigan bo‘lsak, o‘quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirish ma‘lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishi talab etadi. O‘qituvchi o‘quv maqsadi bilan bog‘liqlikda mashg‘ulotni o‘tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg‘ulotda kutiladigan natijaga mos holda o‘quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.*

*Ayrim holatda “metodika” va “texnologiya” tushunchasini farqlashda o‘qituvchi va talaba faoliyatini asos qilib ko‘rsatishga harakat qilinadi. Ya’ni metodikada o‘qituvchining dars jarayonidagi faoliyati yoritib berilsa, texnologiyada talabalarning o‘quv harakatlari oydinlashtiriladi, degan mulohaza bayon qilinadi. Biroq bunday yondashuvni ma’qullab bo‘lmaydi. “Metodika” ham, “texnologiya” ham o‘qituvchi-talaba faoliyatini yaxlitlikda tashxis etadi. Texnologiya metodikadan farqli ravishda har bir bosqichda o‘qituvchi-talaba faoliyati mazmunini alohida-alohida oydinlashtiradi. Har bir bosqichda erishilgan natijalarni tashxis etib, o‘z vaqtida korreksiyalash imkonini beradi. Ana shu jihat ta’limga texnologik yondashuvning eng asosiy xarakterli tomonidir.*

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining babs doirasi bilan ham bog‘liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?” degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e’tiborni qaratadi.

*Real ta’lim amaliyotida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir muhim masala “metod” va “texnologiya” tushunchalarini bir xil mazmunda qo‘llanilayotganidir. Bu borada faqat amaliyotchi-pedagoglarni aybdor deyish ham o‘rinli emas. Sababi pedagogik texnologiyaga doir adabiyotlarda “metod”*

*tushunchasining o‘rniga “texnologiya” so‘zini qo‘yib ishlatilish holati juda ko‘p uchraydi. Metod – maqsadga erishish yo‘li sifatida yaxlit ta’lim jarayonining alohida elementi hisoblanadi. Agar interfaol metodlarni “texnologiya” so‘zi bilan ifoda etayotgan mutaxassislar ularni qo‘llash bosqichma-bosqich amalgaga oshirilishini nazarda tutib, shunday yondashuvga asoslanayotgan bo‘lsalar bunday nazariy-metodologik asos didaktik nuqtai nazardan mutlaqo xato.* Chunki texnologik jarayon ikki – loyihalash va rejalashtirish bosqichlaridan tashkil topadi. Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma’lumot mazmuni elementlari (bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning didaktik maqsadi, o‘qituvchi va talabalar maqsadi, maqsadlarni amalgaga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo‘yicha o‘tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish shakl, metod va vositalari oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ta’lim modelini yaratishga olib keladi. Rejalashtirish mashg‘ulot bosqichlarini loyihalash, har bir bosqichda professor-o‘qituvchi va talabalar faoliyatini oydinlashtirish, qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirishni talab etadi. Natijada mashg‘ulotning texnologik xaritasi yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta’lim texnologiyasi o‘qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o‘qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o‘qituvchi va talaba faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalgaga oshirishning samarali texnikasidir.

**3. Real ta’lim amaliyoti ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda.** Biroq ilg‘or pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga qo‘llash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e’tiborga olish va hal etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) oliy ta’limda qo‘llash uchun mo‘ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning yetarli emasligi. Garchi respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, mazkur o‘quv qo‘llanmalarda oliy ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol metodlar va ularni qo‘llashga doir metodik ko‘rsatmalar aniq o‘z ifodasini topmagan. Mazkur holat oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llashga doir ma’lumotlardan to‘la xabardor bo‘lmashligiga olib kelmoqda. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonini kuzatish professor-o‘qituvchilar keng qo‘llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko‘rsatadi.

Bunday metodlar sifatida klaster, B-B-B chizmasi, aqliy hujum, “Baliq skeleti” chizmasi, “Qanday? diagrammasi” kabilarni aytib o‘tish mumkin;

2) professor-o‘qituvchilar interfaol metodlarni qo‘llashda metodik qoidalarga to‘liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o‘ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg‘ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo‘llash lozim. Oddiy bir misol: professor-o‘qituvchilar, ayniqsa, yosh o‘qituvchilar deyarli har bir mashg‘ulotida klaster metodini qo‘llaydi. Eng qizig‘i, mazkur metod orqali o‘quv maqsadiga erishish mumkin yoki mumkin emasligidan qat’iy nazar undan foydalanish holati ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to‘rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma’lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o‘tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalanish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo‘rin foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg‘ulot sifatini pasaytirishga olib keladi;

3) ta’lim texnologiyalarini yaratish uchun professor-o‘qituvchilar o‘quv maqsadlarini pedagogik vazifalarga aylantirish, uni kutiladigan natijaga mos holda aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim. Barcha mashg‘ulotlarning texnologik ishlanmalarini yaratish jarayonida identiv o‘quv maqsadlarini vazifalarga aylantirish uchun bir xil fe’l turkumidagi so‘zlar (ma’lumot berish, ochib berish, yoritib berish, izohlash kabilalar)dan foydalanish o‘rinli bo‘lmaydi. Buning uchun professor-o‘qituvchilar Blum taksonomiyasini amaliyatda qo‘llash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari talab etiladi. Identiv o‘quv maqsadlarini o‘quv vazifalariga aylantirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmasdan turib, mashg‘ulot jarayonini muvafaqqiyatli loyihalashga erishish mumkin emas;

4) oliy ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish an’anaviy o‘qitish tizimining muqobili sifatida xizmat qilishi lozim. Chunki barcha auditoriya mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llashga zaruriyat yo‘q. Eng asosiysi, texnologik yondashuv asosida o‘quv mashg‘ulotida kutilgan natijaga erishilishi lozim. Mazkur jarayonda maqsadga erishishga imkon beruvchi istalgan maqbul metodlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, professor-o‘qituvchilarning texnologik yondashuvni noto‘g‘ri talqin etgan holda, ma’ruza mashg‘ulotlarini talabalarning o‘zлari tomonidan o‘tib berilishini talab qilishlari ham maqsadga muvofiq emas. Ma’ruza mashg‘ulotiga nisbatan bunday yondashuv uning samaradorligini ta’minalashga to‘liq xizmat qilmaydi. Oliy ta’limda o‘qitishning asosiy shakli sifatida ma’ruzaga qo‘yiladigan metodik, shu jumladan ma’ruzachiga qo‘yiladigan talablar mavjud. Mazkur talablarning to‘liq bajarilishi professor-o‘qituvchi (lektor) orqaligina samarali amalga oshishi

mumkin. Faqat anjuman-ma’ruza mashg‘ulotlarini talabalarning ma’ruzalari asosida tashkil etish imkoniyati mavjud va bu sohada respublikamizda katta tajriba to‘plangan. Bunda ham anjuman-ma’ruzani tashkil etish va o‘tkazish talablariga rioya qilinishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqqiyatl hal etish lozim:

1) professor-o‘qituvchilar “interfaol metod”, “strategiya”, “texnologiya” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari lozim. Mazkur tushunchalarning mohiyatini to‘g‘ri anglay olmaslik ularni qo‘llashda ko‘plab metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oliy ta’limda asosiy e’tibor o‘qitish jarayonini loyihalash (texnologik model) va rejalashtirish (texnologik xarita)ga, ya’ni texnologizatsiyaga qaratilishi kerak;

2) oliy ta’limda fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko‘rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Aniq metodik ko‘rsatmalarga rioya etish orqali intferfaol metodlarni samarali qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi;

3) pedagogika malaka oshirish tarmoq markazida “Ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat” modulini o‘qitishda asosiy e’tiborni professor-o‘qituvchilarni o‘qitish jarayonini loyihalash va rejalashtira olish ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratish lozim;

4) fanlar bo‘yicha ta’lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg‘ulot shakllari, mavzularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o‘rinli bo‘ladi;

5) oliy ta’lim muassasalarida “Innovatsion markaz” faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mazkur markaz kuch va imkoniyatlaridan professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida foydalanish ehtiyoji mavjud. Ta’limga innovatsiyalar kirib kelishi dialektik tavsiyga ega bo‘lgani uchun ham yangiliklarni yaratish, joriy etish, o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga doir vazifalarni muvafaqqiyatl hal etishga xizmat qiluvchi innovatsion markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish har jihatdan samarali bo‘ladi.

**4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiqish.** Didaktik o‘yinli texnologiyalarning defektologiya (maxsus pedagogika) fanlarini o‘qitishdagi o‘rni. Ta’lim tizimida bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash. Defektologiya (maxsus pedagogika) fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan seminar, amaliy mashg‘ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;

### “AQLIY HUJUM” metodi



- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plib, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga

ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkko‘rni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

#### **“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida (1-chizma) “Aqliy hujum” metodining to‘zilmasi keltirilgan.



1-chizma. “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- 1.Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
- 2.Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
- 3.Ta’lim oluvchilarning fikr - g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
- 4.Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilar bo‘yicha guruhanadi;
- 5.Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

### **“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:**

- 1.natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- 2.ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- 3.fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;
- 4.ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- 5.ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

### **“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:**

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.




### **“KIChIK GURUHLARDA IShLASH” metodi**



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining to‘zilmasi keltirilgan (2-chizma).



2-chizma. “Kichik guruhlarda ishslash” metodining to‘zilmasi  
**“Kichik guruhlarda ishslash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- 1.Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
  - 2.Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
  - 3.Kichik guruhlar topshiriqn ni bajarishga kirishadilar.
  - 4.Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
  - 5.Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
  - 6.Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
  - 7.Kichik guruhlar baholanadi.
- «Kichik guruhlarda ishslash» metodining afzalligi:**
- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
  - muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
  - vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
  - barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
  - o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

## **«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**


- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

## **“DAVRA SUHBATI” metodi**



**“Davra suhbati” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yo‘zasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




### **Belgilar:**

- 1-ta'lim oluvchilar  
2-aylana stol

### **3-chizma. Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhabatida (3-chizma) ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozni beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga o'zatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga o'zatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhabati" metodining to'zilmasi keltirilgan (4-chizma).



4-chizma. “Davra suhbati” metodining tuzilmasi

### **“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqlari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqlari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga o‘zatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqlari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga o‘zatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqlari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

### **“Davra suhbati” metodining afzalliklari:**

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta’lim oluvchilar ishtiroy etadilar;
- har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

### **“Davra suhbati” metodining kamchiliklari:**


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

### **“IShBOP O‘YIN” metodi**



**“Ishbop o‘yin” metodi** - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari assosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o‘yin” metodining to‘zilmasi keltirilgan (5-chizma).



5-chizma. “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi

#### **“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- 1.Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
- 2.Ta’lim oluvchilarni o‘yining maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
- 4.Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.
- 5.Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan ko‘zatadi.

6.O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.

7.Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday to‘tishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

### **“Ishbop o‘yin” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va hulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchining boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

### **“Ishbop o‘yin” metodining kamchiliklari:**

- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi; vaqt ko‘p sarflanadi;
- tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchining his-hayajoni to‘g‘ri qaror qabul qilishga halaqit berishi mumkin.

### **“ROLLI O‘YIN” metodi**




**“Rolli o‘yin” metodi** - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagи rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zлari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining to‘zilmasi keltirilgan (6-chizma)



6-chizma. “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni ko‘zatib turadilar.

5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Ko‘zatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

6. Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalg etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yo‘z beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

#### **“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:**

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

#### **“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:**

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlichalagi bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

## “БАҲС-МУНОЗАРА” методи



**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida (7-chizma) “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish to‘zilmasi berilgan.



7-chizma. “Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

**“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

6. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
7. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

8. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

9. Tahlil natijasida qo‘ylgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

#### **“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

#### **“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:**


- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

### **“MUAMMOLI VAZIYAT” metodi**



**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining to‘zilmasi keltirilgan (8-chizma).



### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- 1.Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
- 2.Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
- 3.Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
- 4.Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
- 5.Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g’risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
- 6.Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
- 7.Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
- 8.Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

### **“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

### **“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:**


- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko‘p vaqt talab etiladi.



**“Loyiha” metodi** - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtiroy etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan (9-chizma).



9-chizma. “Loyiha” metodining bosqichlari

### **“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejorashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarini muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasini asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni meyoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda meyoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini ko‘zatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’milanishi lozim.


“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

### **“YO‘NALTIRUVChI MATN” metodi**

**“Yo‘naltiruvchi matn” metodi** - ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda yo‘naltiruvchi savollar yordamida ma’lumot yig‘ish, rejorashtirish, amalga


oshirish vazfalarini bajaradigan metoddir. Quyida (10- chizma) “Yo‘naltiruvchi matn” metodida muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilarning faoliyati keltirilgan.



#### **10-chizma. “Yo‘naltiruvchi matn” metodida muhandis-pedagog va ta’lim oluvchi faoliyati**

“Yo‘naltiruvchi matn” metodining barcha bosqichlarida muhandis-pedagog faoliyati “passiv”, ta’lim oluvchi faoliyati esa “aktiv” bo‘ladi. Chunki ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsatadilar. “Yo‘naltiruvchi matn” metodidan o‘quv amaliyot darslarida foydalilanadi. Ushbu metodni o‘tkazish bosqichlari “Loyiha metodi”ning bosqichlari bilan bir-xildir. Ma’lumot yig‘ish, rejulashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida ta’lim oluvchi mustaqil ishlaydilar. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta’lim oluvchi va muhandis-pedagog orasida “qaytar aloqa” o‘rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Ta’lim oluvchilarga boshlang‘ich bosqichlarda muhandis-pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo‘naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

Quyidagi chizmada “Yo‘naltiruvchi matn” metodining to‘zilmasi keltirilgan (11-chizma).



11-chizma. “Yo‘naltiruvchi matn” metodining to‘zilmasi

#### **“Yo‘naltiruvchi matn” metodining bosqichlari:**

1. Muhandis-pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo‘naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.

MAQSAD:	YO‘NALTIRUVCHI SAVOLLAR:	TARQATMA MATERIALLAR	ChIZMALAR, SXEMALAR
_____	_____	_____	_____
_____	_____	_____	_____
_____	_____	_____	_____
_____	_____	_____	_____
_____	_____	_____	_____
TOPShIRIQ TA’RIFI:	_____	_____	_____

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar, yo‘naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar va “Yo‘naltiruvchi matn” to‘zadilar.

3. So‘ngra ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda “yo‘naltiruvchi matn” asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalarni rejalshtirilishi lozim.

**YO‘NALTIRUVChI  
MATN:**

---



---



---



---

**ISh REJASI**

Nº	Ish tartibi	Zarur bilgan asboblar	Vaqt

4. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birqalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarни muhokama qilishadi. Ta’lim oluvchilar bajariladigan ishlар ketma-ketligi bo‘yicha qaror qabul qiladilar, muhandis-pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

5. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlarda amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta’lim oluvchilarning amaliy ko‘nikmalari shakllanadi. Muhandis-pedagoglar topshiriqning bajarilishini “Nazorat varaqasi”ga qayd qilib boradi.

**BAHOLASH  
VARAQASI**

Nº	Mezonlar	O‘quvchi F.I.Sh.

**NAZORAT VARAQASI**

Nº	O‘quvchi F.I.Sh.	Mezonlar

6. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar va “Baholash varaqasi”ni to‘ldiradilar. “Baholash varaqasi”da sifat mezonlari, ya’ni talab etilgan meyorlar beriladi va ular erishilgan natija bilan taqqoslanadi.

7. Muhandis-pedagog va ta’lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarini yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta’lim oluvchilarning natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e’tibor berish kerakligi ta’kidlanadi.

“Yo‘naltiruvchi matn” metodi “Loyiha” metodi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtai nazar bo‘yicha farqlash mumkin:

- “Yo‘naltiruvchi matn” metodi ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘rganishiga qaratilgan;
- “Loyiha” metodi esa ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘rganishidan tashqari, e’tiborni kasb o‘rganishda kerak bo‘ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan.

#### **“Yo‘naltiruvchi matn” metodining afzallikkleri:**

- ta’lim oluvchilarning ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilarda muloqot qilish, o‘z natijalarini o‘zi tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- ta’lim oluvchilarda ish-harakatlarni rejorashtirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

#### **“Yo‘naltiruvchi matn” metodining kamchiliklari:**

- ko‘p vaqt talab qiladi;
- tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1.O‘qitish metodikasi va Ta’lim texnolgiyasi tushunchalarini tavsiflab bering.

2.O‘qitish metodikasi va Ta’lim texnolgiyasi tushunchalarini kiyosiy taxlil qiling.

1. Interfaol metodlarning an’anaviy metodlardan farqi tushuntiring.
2. Aqliy hujum metodidan ko‘zlangan maqsad?
3. Muhandis-pedagogik faoliyat qanday amalgalash oshiriladi?
4. Loyihalash metodini bosqichlarini ayting?
5. Baxs-munozara metodining afzallikkleri va kamchiliklari?
6. Interfaol metodlarning ta’limdagi ahamiyati qanday?

#### **Adabiyotlar:**

1. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. – 160 s.
2. Geydebrandt K.F. Uchebnyy plan svobodnoy valdorfskoy shkoly. \\ Chastnaya shkola. – 1997. № 2

3. Guzeev V. V. Integralnaya obrazovatelnaya texnologiya. – M., 1999.
4. Guzeev V.V. Obrazovatelnaya texnologiya: ot priema do filosofii. M.: Sentyabr,1996.
5. Guzeev V.V. Planirovanie rezul'tatov obrazovaniya i obrazovatelnaya texnologiya.- M.: Narodnoe obrazovanie, 2000.
6. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.
7. Ijtimoiy pedagogika. / Egamberdieva N.- T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
8. Jukova Ye.D. Texnologiya organizatsii i realizatsii samostoyatelnoy raboty studentov: rabochaya tetr. – Ufa : Izd-vo BGPU, 2004.
9. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya. Sovremennaya interpretatsiya. – M., 2001.
10. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
11. Kashlev S.S. Sovremennye texnologii pedagogicheskogo protsessa. M.: “Universitetskoe”, 2000.
12. Levites D.G. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. Novosibirsk, 1999.
13. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006.
14. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2006.
15. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Y.YE, Yakubjonova D.B. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Fan va texnologiya” T.: 2013.
16. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
17. Yarkulov R., Maxmudova M.F. Vysshiiy pedagogicheskiy obrazovatelnyy protsess. Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix institutov i universitetov. TGPU imeni Nizami. T., 2007.

### **3-mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini loyihalashtirish**

#### **Reja:**

1. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishning tashkil etish shakllari.
2. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan Maruza, амалий ва семинар mashg‘ulotlarni loyixalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash.

**Asosiy tushunchalar:** Maruza, seminar, amaliymashg‘ulot, ma’lumotliMaruza, muammoli Maruza, vizuallashtirish (namoyishetish; Maruzasi, hamkorlikdagi Maruza, oldindan rejaliashtirilgan xatoliklar bilan olib boriladigan Maruza, press-konferensiya maruzasi, press-konferensiya seminari, munozaraseminari, «aylanastol» seminari, «aqliy xujum» seminari, kollokviumseminar, ishgadoyro‘yin seminari, vaziyatli-rolliuyinlar, aniq vaziyatlarnitahlil qilish metodi, trening. Metod, loyihalash, laborator mashg‘ulot, frontal, guruhli, individual, vaziyatli-rolli o‘yin, ishga doir o‘yin, aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi, trening, differentsiyal diagnostika, tashxisni amalga oshirish bo‘yicha taqlidiy mashg‘ulotlar, korreksion mashg‘ulotlar.

Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiqish. Didaktik o‘yinli texnologiyalarning defektologiya (maxsus pedagogika) fanlarini o‘qitishdagi o‘rni. Ta’lim tizimida bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash. Defektologiya (maxsus pedagogika) fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan Maruza mashg‘ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash.

Maruza o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, o‘qituvchi tomonidan o‘quv materiallarini og‘zaki ravishda, monologik shaklda, tizimli, ma’lum bir ketma-ketlikda bayon etishni nazarda tutadi. Oliy ta’lim paydo bo‘lganidan buyon Maruza asosiy o‘qitish shakli bo‘lib qolmoqda (latin tilidan olingan bo‘lib, lection – o‘qish deganidir). Maruzada o‘qituvchi tizimli ravishda yangi bilimlarni beradi va o‘quv kursi bo‘yicha murakkab bo‘lgan muammolar tushuntirib berilishi dozim. Maruza o‘quv mashg‘ulotlari orasida etarli darajadagi murakkablikka ega mashg‘ulot turi

hisoblanadi, shuning uchun ham uni nisbatan tajribali o‘qituvchilarga ishonib topshiriladi.

Maruzaning vazifalari quyidagilardir: o‘quv fani bo‘yicha bilimlar tizimini shakllantirish; ilmiy materiallarni argumentlarni keltirib (asosli ravishda) bayon etish malakasini shakllantirish; kasbiy fikrlash doirasini va umumiy madaniyatni shakllantirish; darslik va o‘quv qo‘llanmalarida xali yoritilmagan yangi bilimlarni bayon etish.

Maruzaning vazifalari quyidagilardir: informatsion (ma’lumot berish) – bilimlar tizimini bayon etish; motivatsion – o‘quv fani mazmunini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni va bo‘lajak mutaxassisning kasbiy motivini uyg‘otish; mo‘ljal oldiruvchi – o‘quv materialini kelajakda ham o‘zlashtirilishini uchun asos yaratish; tarbiyaviy – ta’lim jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish, mustaqil ishlash va mutaxassislikni har tomonlama egallashga intilish, o‘quv faniga qiziqishni rivojlanТИrish, talabalarning tafakkurini faollashtirishga ko‘maklashish.

Xozirgi kunda mashg‘ulotlarni Maruza metodida olib borilishiga qarshilik qiluvchilarning soni ortib bormoqda. Ularning fikrlariga ko‘ra Maruzaning kamchiligi, avvalambor, talabalar faolligining etarli emasligi, ulapr tomonidan ma’lumotlaprni etarlicha ishlanmasligi talabalarning ijodiy faoliyatining mavjud bo‘lmasisligi, ularning tanqidiy tafakkurini, ma’lumotlarni amaliy qo‘llash va ularni mustahkamlashni so‘ndirishidadir.

Biroq tajribalarning ko‘rsatishiga ko‘ra, Maruzadan voj kechish talabalar tayyorgarligining ilmiy darajasini pasaytiradi, shuning uchun ham Maruza xuddi avvalgidek, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli bo‘lib qolmoqda.

O‘quv jarayonida ta’limning Maruza shakli boshqa bir shakldagi mashg‘ulot bilan altirishning iloji bo‘lmasa bir qator vaziyatlar yo‘zaga keladi<sup>10</sup>:

- «yangi o‘qitilayotgan kurslar bo‘yicha darsliklar mavjud bo‘lmagan vaziyatda Maruza – asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi;
- ma’lum bir mavzu bo‘yicha yangi o‘quv materiali xali darslikdan o‘rin egallamaganda yoki uning bo‘limlari eskirganda ham Maruza – asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi;
- darslikning ayrim mavzulari mustaqil o‘zlashtirish uchun murakkab bo‘lib, Maruzachi tomonidan metodik qayta ishlanishini talab etadi;
- kursning asosiy muammolari bo‘yicha qarama-qarshi konsepsiylar mavjo‘z bo‘lganda Maruza ularning ob’ektiv yoritilishi uchun muhimdir;
- Maruza Maruzachining talabalarning dunyoqarashini shakllantirish maqsadida shaxsiy hissiy ta’sir etishi talab etilganda juda muhim hisoblanadi va

<sup>10</sup>Bulanova-Toporkova M.V. Pedagogika i psixologiya vlysshey shkolы: uchebnoe posobie. — Rostov-na-Donu: Feniks, 2002 y. - 544 b.

hech binr mashg‘ulot turi bilan almashtirib bo‘lmaydi. Maruzaning hissiy bezaklari chuqur darajadagi ilmiy mazmun bilan uyg‘unlashib, tinglovchilar bilan fikr, so‘z va idrok orasidagi muvofiqlikni yaratadi. Maruzaning hissiy ta’siri ijtimoiy fanlarni o‘qitishda muhim o‘rinni egallaydi.»

Maruzaning to‘zilishini ko‘rib chiqamiz. Maruzaning odatiy to‘zilmam elementlariga kirish, asosiy qism, xulosa kiritiladi.

Kirish – auditoriyani o‘quv materialini idrok etishga qiziqtirish va yo‘naltirish maqsadiga ega bo‘lgan Maruzaning bir qismidir. Maruzaning bu qismiga: Maruza mavzusini bayon etish, uning kasbiy ahamiyatini, yangiligini va uning o‘rganilganlik darajasini, Maruza maqsadini tavsiflash, Maruzada ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan asosiy muammolarni qamrab olgan Maruza rejasini bayon etish, avvalgi Maruzada ko‘rib chiqilgan savollarni yodga solish, ularning yangi material bilan bog‘liqligini, uning ushbu fandagi ahamiyati, o‘rnini, shuningdek, boshqa fanlar tizimidagi o‘rnini belgilashni qamrab oladi.

Asosiy qism – taklif etilgan rejaga qat’iy amal qilgan xolda Maruza mazmunini bayon etish. Maruza mavzusini ochib beruvchi konseptual va dalilli materiallarni, ularni tahlili va baholanishini, ilgari surilayotgan nazariy qoidalarni turli usullarda argumentlash va isbotlashni qamrab oladi. Maruzaning turiga qarab ish turi aniqlanadi.

Xulosa – Maruzani umumiy xulosalash, materiallarni umumlashtirish, Maruza mavzusi bo‘yicha xulosalarini bayon etish; talabalarning savollariga javob berish.

Zamonavi ypedagogik texnologiyalar materiallarni Maruza ko‘rinishida bayon etishning an‘anaviy ustunliklarini saqlab qolgan xolda Maruza metodining kamchiliklarini engib o‘tishga harakat qilmoqda.

Xuddi shunday, *muammoli Maruza* materialni bayon etish davomida xal etilishi lozim bo‘lgan savollardan, muammoni belgilashdan boshlanadi. Bunda muammoni xal etishning tayyor shakli talabalarning tajribasida mavjud bo‘lmaydi, ya’ni savolga javob topish uchun fikrlash, farazlarni ilgari surish va ularni tekshirib ko‘rish talab etiladi. Ma’lumotli Maruzada o‘qituvchi tomonidan ma’lum bo‘lganlar narsalar o‘rgatilishi va talabalardan ularni eslab qolishning o‘zi talab etilsa, uning mazmunidan farqli ravishda, muammoli Maruzada yangi bilim talabalar uchun shaxsiy ixtirolari sifatida o‘rgatiladi. Muammoli Maruzada talabalarning tafakkurini boshqarish uchun o‘qituvchi tomonidan avvldan tayyorlab qo‘yilgan muammo va ma’lumotli savollar qo‘llaniladi.

Muammoli savollar – bu javoblari avvalgi o‘rganilgan mavzularda ham, bayon etilayotgan materialda ham (doskadagi yozuvlarda, devordagi jadvallarda va x.k.) bo‘limgan va talabalarda intelektual qiyinchiliklarni yo‘zaga keltiruvchi savollardir. Muammoli savollar o‘z ichiga noma’lumlarni, yangi bilimlarni qamrab olib, ularni egallah uchun qandaydir intelektual harakat, ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan tafakkur jarayoni talab etiladi.

Ma'lumotli savollar muammoni tushunish uchun talabalarda mavjud bo'lgan bilimlarni aktuallashtirish va uni xal etish bo'yicha aqliy faoliyatni boshlash maqsadida beriladi.

Shunday qilib, o'quv materiali o'quv muammosi sifatida ilgari suriladi. U ma'lum sharoitda ayrim qarama-qarshiliklarga ega va ushbu qarama-qarshiliklar oydinlashuvchi yakuniy savollar bilan tugaydigan idrok vazifalarining mantiqiy shakliga ega. Muammoli bayon etish uchun o'quv fanining asosiy konseptual mazmunini tashkil etuvchi, bo'lajak kasbiy faoliyat uchun nisbatan muhim bo'lgan va talabalar tomonidan o'zlashtirilishi qiyinroq bo'lgan kursning muhim bo'limlari tanlab olinadi.

O'quv muammolari o'zlarining murakkabligi jihatidan talabalarga mos bo'lishi, o'quvchilarining bilish jarayonlarini hisobga olingan, o'rganilayotgan fandan kelib chiqgan xolda yangi materialni o'zlashtirishda va shaxsni – umumiyl va kasbiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lishi zarur.

*Vo'zuallashtirish (namoyish etish)- Maruzasi* ko'rgazmalilik tamoyilini yangicha qo'llanilishiga misol bo'la oladi, uning faol o'qitishning shakllari va metodlari haqidagi psixologo-pedagogik ilm ma'lumotlari mazmuniga ta'siri natijalari hisoblanadi. Vo'zuallashtirish (namoyish etish)- Maruzasi talabalarni og'zaki va yozma ma'lumotlarni vizual shaklga aylantirishga o'rgatadi, u esa ta'lim mazmunida mavjud bo'lgan ahamiyatli elementlarni ajratish va tizimlashtirish hisobiga kasbiy tafakko'rni shakllantiradi. O'qituvchi tomonidan ushbu turdag'i Maruzaga tayyorlanish deganda Maruza mashg'uloti mavzusi bo'yicha o'quv materiallarini ta'limning texnik vositalari yoki qo'lda (chizma, rasm, jadvallar va x.k.) talabalarga taqdim etish uchun vizual shaklga keltirish nazarda tutiladi. Bu turdag'i Maruzani o'qish Maruza mavzusini to'liq ochib beruvchi o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan ko'rgazmali materiallarni keng va bog'liq ravishda sharhlash darajasiga etkaziladi. Bunday turda taqdim etilgan ma'lumotlar talabalarning kasbiy va idrok etish faoliyatida muhim hisoblangan ular tomonidan o'rganilgan bilimlarni tizimlashishini ta'minlashi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va ularning echimini topishga imkon yaratishi, turli turdag'i ko'rgazmalarni namoyish etishi kerak.

Maruzaning bu turini talabalar bilan yangi bo'lim, mavzu, fanni o'rganishni boshlashda qo'llash yaxshi natija beradi. Bunda yo'zaga keluvchi muammoli vaziyat materialni o'rganishga, o'qishning boshqa turlarida ko'rgazmali ma'lumotlarni rivojlantirish ko'nikmasiga psixologik ko'rsatmani yaratadi.

*Hamkorlikdagi Maruza* muammoli mazmundagi o'quv materialini ikki o'qituvchining o'zaro jonli diologik muloqotida taqdim etilishidir. Bunda ikki mutaxassisning nazariy muammolarni ikki nuqtai-nazardan muxokamasi kabi aniq kasbiy va malakali vaziyat gavdalananadi, masalan, nazariyotchi va amaliyotchi muxokamasi, biron-bir fikr tarafdoi va bu fikrga qarshi

mutaxassisning kabi. Maruzaning bu turi talabalarning tanqidiy tafakkurini faol ravishda rivojlanishiga hizmat qiladi.

Bu jarayonda o‘qituvchilarining o‘zaro diologi echimi izlanayotgan muammoning echimini hamkorlikda izlash mkadaniyatini namayon etishi va bu jarayonga talabalarning savollar, o‘z nuqtai-nazarlarini bayon etish, muxokama etilayotgan Maruza mavzusiga o‘z munosabatlarini shakllantirish, yo‘z berayotgan xodisalarga hissiy javob qaytarishlarini jalg etishi lozim.

Maruza vaqtida har ikki o‘qituvchining yuqori darajadagi faolligi talabalarda fikran va ahloqan faol bo‘lishni keltirib chiqaradi, bu esa faol ta’lim olishga xos bo‘lgan xislat hisoblanadi: talabalarning bilish jarayoniga jalg etilganligi o‘qituvchilarining faolligi bilan mos keladi. Yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari talabalar munozara qilish madaniyati, dialogga kirishish usullari, hamkorlikdari izlanish va yakuniy to‘xtamga kelish haqida ko‘rgazmali ravishdagi tasavvurga ega bo‘ladilar.

*Oldindan rejalshtirilgan xatoliklar bilan olib boriladigan Maruza* talabalarda kasbiy vaziyatlarni operativ ravishda tahlil etish, ekspert, opponent, retsenzent sifatida qatnashish, noto‘g‘ri yoki noaniq ma’lumotlarni ajratib ko‘rsata olish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan.

O‘qituvchining Maruzaga tayyorgarligi shundan iborat bo‘ladiki, Maruza mazmuniga ma’lum miqdorda semantik, metodik yoki ahloqiy doiradagi xatoliklar kiritilishi talab etiladi. Bunday xatoliklarning ro‘yhatini o‘qituvchi Maruzaga olib keladi, biroq ularni talabalarning e’tiboriga Maruzaning oxirida taqdim etadi. Talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan va Maruza o‘qish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan ko‘p xolatlarda uchraydigan xatoliklar tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi Maruzani shunday mahorat bilan olib borishi va yo‘l qo‘yilgan xatolarni yashirishi kerakki, unda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni talabalar yaqqol va tez aniqlay.

Talabalarning vazifasi shundan iborat bo‘ladiki, daftarlariga yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni qayd etib borishlari va Maruzaning so‘ngida ularni bayon etishlari talab etiladi. Xatolarni muxokamasi uchun 10-15 daqiqa ajratiladi. Mana shu muxokama jarayonida o‘qituvchi, talabalar yoki hamkorlikda savollar emas, balki to‘g‘ri javoblar berib boriladi. Oldindan rejalshtirilgan xatoliklarning miqdori o‘quv materialining, Maruzaning didaktik va tarbiyaviy maqsadidan, talabalarning tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Talabalar yoki o‘qituvchining o‘zi tomonidan aniqlangan xatoliklar muammoli vaziyatning vujudga kelishiga hizmat qilishi va uni keyingi mashg‘ulotlarda echimini izlanishi mumkin bo‘ladi. Maruzaning bu turini mavzu, bo‘lim yoki fan yakunida o‘tkazilganligi maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda talabalarda asosiy tushuncha va tasavvurlar shakllangan bo‘ladi.

*Press-konferensiya Maruzasi* quyidagi shaklda olib boriladi. O‘qituvchi Maruza mavzusini e’lon qiladi va talabalardan yozma ravishda unga savol

berishlarini so‘raydi. Har bir talaba 2-3 daqiqa ichida o‘zini qiziqtiruvchi savolni shakllantirishi va uni yozib o‘qituvchiga o‘zatishi talab etiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi 3-5 daqiqa davomida savollarni mazmuniga ko‘ra ajratib chiqadi va Maruzasini o‘qishni boshlaydi. Materiallarni savollarga javob berish sifatida bayon etmaydi, balki shunday bayon etadiki, har bir jumla bir-birini davom ettirishi va to‘ldirishi kerak bo‘ladi, biroq mana shu uzviy bog‘lanishga ega Maruzadan barcha berilgan savollarning javobini topish mumki n bo‘lishi kerak bo‘ladi. Maruza yakunida o‘qituvchi berilgan savollarni tinglovchilarning bilim saviyasining aksi sifatida baholaydi.

Press-konferensiya Maruzasida talabalar faoliyatining faollashuvi har bir talabaga qaratilgan ma’lumotlarning aytib o‘tilishi bilan belgilanadi. Savolni bayon etishdagi majburiylik va uni to‘g‘ri bera olish talabalar bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘z savoliga javobni olishga intilish esa diqqatni jamlanishiga sabab bo‘ladi. Talabalarning savollari aksariyat xolatlarda muammoli xarakterga ega bo‘lib, tafakkur jarayonlarining ijodiy boshlanishi hisoblanadi. Berilgan savollarga va ularning javoblariga o‘qituvchining shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy munosabati talabalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

Press-konferensiya Maruzasini mavzu yoki bo‘limni o‘rganishdan oldin, o‘rtasida yoki oxirida o‘tkazish mumkin. Mavzuni o‘rganishdan oldin bunday turdagи Maruzaning o‘tkazilishidan maqsad – talabalarning qiziqishlari va talablari doirasini aniqlash, ularning ish jarayoniga tayyorgarligini va fanga bo‘lgan munosabatini aniqlab olishdan iboraot bo‘ladi. Kurs yoki mavzuning o‘rtasida bunday Maruzaning olib borilishi o‘quv fani mazmunining asosiy jihatlariga e’tiborni qaratish, talabalar bilimlarini tizimlashtirish, kurs bo‘yicha tanlangan Maruza va semenar mashg‘ulotlari tizimini korreksiyanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Press-konferensiya Maruzasini bo‘lim yoki mavzu oxirida o‘tkazilishidan maqsad – Maruza mashg‘ulotlariga xulosa va yakun yasash, keyingi bo‘limlarni o‘rgatish uchun ushbu bo‘limning o‘zlashtirib olinganlik darajasini aniqlab olishdan iboratdir.

*Suhbat-* Maruza Suqrot davridan beri talabalarning o‘quv jarayoniga faol ravishda jalb etishning eng sodda va keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Suhbat-Maruzaning afzallik tomoni shundan iboratki, u talabalarning e’tiborini mavzuning nisbatan muhimroq savollariga ko‘proq jalb etish, o‘quv materialini bayon etish mazmuni va tempini talabalarning individual o‘ziga xosliklarini inobatga olgan xolda bayon etish imkoniyatini beradi.

Tinglovchilarning suhbat-Maruzada ishtiroki turli usullar orqali amalgalashiriladi, masalan, ham ma’lumotli, ham muammoli xarakterga ega bo‘lgan savollar orqali. Suhbat – Maruzani o‘tkazishda o‘qituvchi berilayotgan savollarning hech biri javobsiz qolmasligiga alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi, aks xolda ular talabalar tafakkuri faollashuvini etarli darajada ta’minlanishiga erishmay, ritorik xarakterga ega bo‘lib qoladi.

*Aniq vaziyatlarni analiz qilish Maruzasi* shaklan jihatdan munozara Maruzasini eslatadi, biroq muxokama predmeti muammoli vaziyat bo‘lmaydi, balki aniq vaziyat hisoblanadi. Odatda bunday vaziyat og‘zaki yoki juda qisqa videoyozuv, diofilm tarzida taqdim etiladi. Talabalar ushbu mikrovaziyatni tahliol qilib, butun audmitoriya bilan muxokama qiladilar. Diqqatni qaratish uchun vaziyat xarakterli va yorqin tanlanishi lozim. O‘qituvchi alohida talabalarga qaratilgan savollar orqali muxokamadagi ishtirokni faollashtiradi, munozarani rivojlantirish uchun turli fikrlarni bildiradi, uni kerakli tomonga yo‘naltirib turadi. Keyin talabalarning bildirgan fikrlariga tayangan xolda o‘qituvchi o‘ta ehtiyyotkorlik bilan auditoriyani jamoaviy xulosa yoki umumlashuvga olib keladi.

Ayrim xolatlarda mikrovaziyatni muxokama qilish auditoriyani qiziqtirish, alohida muammolarga diqqatni qaratish, o‘rganilayotgan materialni ijodiy idrok etishga tayyorlash maqsadida Maruzaning keyingi qismiga debocha sifatida qo‘llaniladi.

Laborator (amaliy) mashg‘ulotlar – o‘quv fanining ilmiy-nazariy asoslarini bilib olish, ijodiy faliyat ko‘nikmasi va tajribasiga ega bo‘lish, texnik vositalarni qo‘llagan xolda zamonaviy amaliy ishslash metodlarini o‘zlashtirish maqsadida o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv topshiriqlari kompleksini bajarishni nazarda tutuvchi o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. "Laboratoriya" so‘zi lotin tilidagi "labor" so‘zidan olingan bo‘lib, mehnat, ish, qiyinchilik degan ma’nolarni bildiraditrud, rabota, trudnost.

Laborator (amaliy) mashg‘ulotlar ularni bajarishning nazariy asosini yoritib beruvchi Maruzalardan so‘ng amalga oshiriladi. Muhim nazariy ma’lumotlar yoki ushbu ma’lumotlarni qamrab olgan aniq o‘quv nashriga ssylkasi (ko‘rsatmasi)ni qamrab olgan laborator (amaliy) ishlar tavsifi keltirilganda nazariy materiallarni o‘rganishni engillashtirish maqsadida laborator (amaliy) mashg‘ulotlarni Maruzadan oldin o‘tkazilshi mumkin bo‘ladi.

Laborator (amaliy) mashg‘ulotining maqsadi real amaliy faoliyat sharoitda talabalarning boshqariluvchi bilish faoliyatini tashkillashtirishdan iborat.

Laborator (amaliy) mashg‘ulot to‘zilishiga xos bo‘lgan elementlar: kirish, asosiy va yakuniy qismlardir.

Kirish qismi talabalarning ish topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rishlarini ta’minlaydi. Uning tarkibiga: mavzu, maqsad va vazifalarni bayon etish, talabalarning kasbiy tayyorgarligida uning ahamiyatini asoslash; ushbu mavzuning kursdagi boshqa mavzular bilan bog‘liqligini ko‘rib chiqish; ishning nazariy asoslarini bayon etish; ish topshiriqlari tarkibi va o‘ziga xosliklarini tavsiflash, ularni bajarishga yondoshuvni (metod, usullarni) tushuntirish; ish natijalariga qo‘yiladigan talabalarni tavsiflash; talabalar tomoning ishni boshlashga tayyorgarliklarini tekshirish; o‘qituvchi nazorati ostida topshiriqdan

bir namunani bajarib ko‘rish; talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarilishida natijalarni mustaqil boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.

Asosiy qism talabalar tomonidan topshiriqlarni mustaqil bajarishlarini nazarda tutadi. Ish jarayonida qo‘srimcha tushuntirishlar; yo‘zaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish; ish natijalarini joriy nazorat qilish va baholash; talabalar savollariga javob berish kabilar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

Yakuniy qism tarkibiga: mashg‘ulotning umumiy xulosasini (ijobiyl, salbiy) chiqarish; ayrim talabalarning ishlari natijalarini baholash; talabalarning savollariga javob berish; talabalar ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ularning bilim, malakalari tizimidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish; o‘qituvchi to‘plash; keyingi ishlarni bajarishga tayyorgarlik ko‘rish, jumladan o‘rganilishi kerak bo‘lgan o‘quv adabiyotlar haqida ma’lumotlarni bayon etish.

Mashg‘ulotlarda talabalar ishini tashkil etish shakllari: 1) frontal, 2) guruhli, 3) individual.

Mashg‘ulotni frontal shaklda tashkil etishda barcha talabalar bir vaqtning o‘zida bir xildagi topshiriqni bajaradilar. Bunday shakldagi amaliy mashg‘ulotning odatiy misoli - talabalar tomonidan mакtabda o‘qitiladigan biron-bir fanning o‘quv dasturini tahlil etilishidir. Yana bir misol talabalarning biri o‘qituvchi, boshqalari esa o‘quvchilar sifatida “dars o‘tishlari”dir. Darsning yakunida talabalar tomonidan uning tahlili amalga oshiriladi, “o‘qituvchiga” tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mashg‘ulotni guruhli shaklda tashkil etishda bitta topshiriq bir nechta kishidan iborat bo‘lgan kichik o‘quv guruhlarida bajariladi. Ikki kishilik (tekshiruvchi - tekshiriluvchi) yoki uch kishilik (tekshiruvchi – ota-ona - tekshiriluvchi) guruhchalarda psixologo-pedagogik yoki logopedik tekshirishni o‘tkazish –maxsus fanlar bo‘yicha ko‘pgina laborator ishlarning o‘tkazilishning an’anaviy sxemasidir.

Mashg‘ulotlarni individual shaklda tashkil etishda talabalarning har biri individual topshiriqni bajaradi. So‘ngra ular ishni bajarish tajribasi bilan o‘zaro almashadilar.

O‘quv fanlarining o‘ziga xosliklarini va o‘quv maqsadlarini inobatga olgan xolda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari quyidagilar: mashqlar, treninglar, vaziyatli topshiriqlarni xal etishga qaratilgan mashg‘ulotlar, aniq topshiriqlarni modellashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, ishga doir o‘yinlar, darslar, korreksion mashg‘ulotlar yoki tashxisni amalga oshirish bo‘yicha taqlidiy mashg‘ulotlar, mакtab, MTM, ko‘zatish bo‘yicha maxsus topshiriqga ega boshqa maxsus muassasalar negizida ko‘chma mashg‘ulotlar, darslarni mustaqil o‘tkazish va x.k.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning ayrim shakllari xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

*Vaziyatlari-rolli o‘yin* quyidagicha tashkil etiladi. Talabalar guruhi oldiga diagnostik, didaktik va boshqa xarakterdagi amaliy topshiriqlar qo‘yiladi. Talabalar orasida vazifalar taqsimlab beriladi. O‘yinda ishtirok etuvchilarining har biri olingan ma’lumotlarni tahlil qilib chiqishi kerak, roliga mos xoldagi harakatlarni tavsiflashi va bajarishi lozim.

«*Ishga doir o‘yin*» Amaliy mashg‘ulotni qat’iy ssenariy bo‘yicha “ishga doir o‘yin” shaklida o‘tkazish ham mumkin. Bunda boshlovchida (o‘qituvchida) taqlid etiluvchi ob‘ektni: autizm, aqli zaiflik, nutq bo‘zilishlari va x.k. (bola yoki bolalar ota-onalarini differential diagnostika qilish bo‘yicha o‘yinlar xolatida) o‘yin ishtirokchilarining (to‘g‘ri va noto‘g‘ri) turli harakatlariga bohliq ravishda tashxis qilishning mavjud variantlari, har bir bosqichdagi harakatlarning etaloni mavjud bo‘ladi. Bolaning bunday tashxislari variantlari va ota-onalar, tekshiruvchilarining psixologik tavsifi uchun ham mos xoldagi harakatlar etaloni va qabul qilingan echimlar bo‘yicha yangi xolatlar va x.k. mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, o‘yinga tayyorgarlik davrida tashkilotchi dastlabki vaziyatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni ko‘ra bilishi, o‘yin ishtirokchilariga talabalarning real harakatlari natijasida yo‘z bergen o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish uchun doimo tayyor bo‘lishi lozim. O‘yinni o‘ynash uchun quyidagi metodik hujjatlar talab etiladi:

- o‘yin boshlovchisi uchun ko‘rsatmalar;
- o‘yin ishtirokchilari uchun ko‘rsatmalar;
- mos ravishdagi xaritalar to‘plami;
- kerakli hujjatlar, didaktik materiallar, o‘quv jihozlari, psixologopedagogik tekshiruv metodikalari va x.k.

*Aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi* o‘yin asosida ta’lim berishning ilk shaklidir. Talabalar bilish jarayonlarini aniq vaziyatlarni tahlil qilish shaklida tashkillashtirish ta’lim oluvchilarining kontingenyii va mashg‘ulotning didaktik maqsadlaridan kelib chiqib bir qator ko‘rinishlarga egadir. Ular qatoriga “mikrovaziyatlarni” yoki Maruza davomida kazus (chigallik)larni tahlil qilish, real hayotda yo‘z bergen ziddiyatli vaziyatlarni ko‘rib chiqish, vaziyatli muammolarni xal etish va x.k.

Oliy mакtab amaliyotida aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodi tarbiyaviy ishlarda pedagogik ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish maqsadida juda ko‘p qo‘llaniladi. Materiallarni mos ravishda tanlashda va mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkillashtirishda vaziyatli topshiriqlar ko‘rgazma, mashq, ilk tajribadlarni o‘zatish vositasi sifatida ham hizmat qilishi mumkin.

Ta’lim oluvchilar ularning kelajak faoliyatlarida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ziddiyat yoki vaziyatni to‘liq tavsifiga ega bo‘ladilar. Tavsif so‘ngida ularning bittasi yoki bir nechtasi yo‘zaga kelgan ziddiyatning echimi uchun mos

bo‘lgan harakatlarning ro‘yhati keltiriladi. Harakatlarning bunday sanog‘i ta’lim oluvchilarga nafaqat muammoning mavjud echimlari variantlarini “aylantirish”ni, balki ularning har birining kutilmagan salbiy oqibatini va x.k.ni hayolan ko‘zatish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ta’lim oluvchi muammoni bir necha usulda yechishi va echimsiz variantlarni maqsadga eltuvchi variantlardan ajratishga o‘rganadi.

Keyingi safar o‘qituvchi talabalarga amaliyotda kutilmagan vaziyatlarni keltirib chiqargan, jiddiy echimni talab etuvchi u yoki bu tanqidiy vaziyatlarni tahlil qilishni taklif etadi.

Ta’lim oluvchilarning e’tiborini ular kelajakda mehnat qiluvchi sohada yo‘z bergen bunday xolatlarga qaratish juda ham foydalidir. Ular shuningdek, eksperimental sharoitda ham, o‘zlarining kundalik hulqlari bo‘yicha nuqtai-nazarlarini shakllanishida ham foydalidir.

Har qanday shakldagi amaliy mashg‘ulotning muhim tomoni *mashq* hisoblanadi. Mashqning asosi – Maruzada rivojlantirilgan nazariya bo‘yicha xal etiluvchi misol hisoblanadi. Qoidaga ko‘ra, talabalar faoliyati mazmunini – topshiriqlarni xal etish, chizmalar chizish, to‘g‘ri tafakkur va nutqning asosi bo‘lgan ilmiy kategoriya va tushunchalarni aniqlashtirishni belgilab beruvchi aniq ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga katta e’tibor qaratiladi. Mashqlarga misol sifatida matematika o‘qitish maxsus metodikasi, tabiatshunoslik o‘qitish maxsus metodikasi va boshqa mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarda muammo va topshiriqlarni xal etishni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Talabalar bilan mashqni yechishda anglash va tushunish qobiliyatini shakllanishiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

*Trening* (ingliz tilidagi train – «o‘qitish», «tarbiyalash» degan so‘zdan olingan) – bu ta’lim berishning faol metodi bo‘lib, tajribali boshlovchi boshqaruvi ostida psixologik yo‘naltirilgan guruhli mashg‘ulotdir. Bunday mashg‘ulotlarda hayotdan olingan istalgan odam bilan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar o‘ynaladi. Trening inson uchun muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, shuningdek, o‘zini va boshqalarni yaxshiroq tushunishga yo‘naltirilgandir. Ta’lim berishning bunday metodi ko‘pincha nafaqat yangi ma’lumot olish, balki olingan bilimlarning amalda ham qo‘llanilishi talab etilganda qo‘llaniladi.

## **Nazorat uchun savollar:**

1. Materiallarni Maruza qilib bayon etishning tanqidi va muhokama etilgan kamchiliklarni Maruza o‘qishning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda qanday qilib bartaraf etish mumkinligini aniq misollar bilan tushuntiring.
  2. Maruzaning to‘zilishi uning uqlish shaklidan kelib chiqib o‘zgaradimi? Nima uchun?
  3. Press-konferensiyaning afzalliklari qanday va siz press-konferensiya shaklidagi darsda ishtirok etganimisiz?
  4. Siznungcha eng samarali maro‘za shakli qaysi?
  
  5. Ta’lim jarayonini tashkillashtirishda ta’lim metodlarining ahamiyati qanday?
  6. Ta’lim berishning interfaol metodlarini ko‘rsating?
  7. Laboratoriya metodini qo‘llagan holda dars qanday tashkil qilinadi?
  8. O‘yin asosida ta’lim berishning ilk shakli qaysi?
  9. Laborator (amaliy) mashg‘ulotning tuzilishi haqida tushuntirib bering.
  10. Mashg‘ulotlarda talabalar ishini tashkil etishning qanday shakllari mavjud?
- 11. Aniq vaziyatlarni tahlil qilish metodini sharhlab bering.**
12. Trening so‘zi qaysi tildan olingan va u qo‘llanadi?

## **Adabiyotlar:**

1. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. – 160 s.
2. Geydebrandt K.F. Uchebnyiy plan svobodnoy valdorfskoy shkoly. // Chastnaya shkola. – 1997. № 2
3. Guzeev V. V. Integralnaya obrazovatelnaya texnologiya. – M., 1999.
4. Guzeev V.V. Obrazovatelnaya texnologiya: ot priema do filosofii. M.: Sentyabr, 1996.
5. Guzeev V.V. Planirovaniye rezul’tatov obrazovaniya i obrazovatelnaya texnologiya. - M.: Narodnoe obrazovanie, 2000.
6. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.
7. Ijtimoiy pedagogika. / Egamberdieva N.- T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
8. Jukova Ye.D. Texnologiya organizatsii i realizatsii samostoyatelnoy raboty studentov: rabochaya tetr. – Ufa : Izd-vo BGPU, 2004.
9. Zagvyazinskiy V.I. Teoriya obucheniya. Sovremennaya interpretatsiya. – M., 2001.
10. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
11. Kashlev S.S. Sovremennye texnologii pedagogicheskogo protsessa. M.: “Universitetskoe”, 2000.

12. Levites D.G. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. Novosibirsk, 1999.
13. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006.
14. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2006.
15. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Y.YE, Yakubjonova D.B. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. “Fan va texnologiya” T.: 2013.
16. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
17. Yarkulov R., Maxmudova M.F. Vysshiiy pedagogicheskiy obrazovatelnyy protsess. Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix institutov i universitetov. TGPU imeni Nizami. T., 2007.

## **4 – mavzu. Maxsus pedagogika fanlarini o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’limini loyihalashtirish**

### **Reja:**

1. Talabalar mutaqil ishlarining maqsadi, vazifalari va tashkiliy shakllari.
2. Talabalarning mustaqil ilimy tadqiqotchilik faoliyati.
3. Talabalarning mustaqil ishlari.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

O‘qish malakalari, talabalar mutaqil ishlarining maqsadi, vazifalari va tashkiliy shakllari, talabalarning mustaqil ilimy tadqiqotchilik faoliyati. talabalarning mustaqil ishlari, o‘quv qo‘llanmalar, reproduktiv, produktiv, konsultativ yordam, konsultatsiya, majburiy meyoriy hujjat, mustaqil ish, eksperimental baza.

Olyi ta’lim muassasasining asosiy vazifasi – “o‘qish malakalariga” o‘rgatish, hech bir maktab mukammal mutaxassisni yetishtira olmaydi: professional (o‘z kasbining ustasi) o‘z faoliyati davomida shakllanadi. U o‘qishni, butun hayoti mobaynida o‘qishni bilishi lozim, xolos. Bu kabi «o‘qish malakalari» mustaqil mashg‘ulotlar davomida tobora to‘liq rivojlanadi. O‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil mashg‘ulotlar, o‘qituvchi yordamisiz olib borilgan mustaqil ishlarga qaraganda talabaning tobora samarali tayyorgarligi va nazariy materialni o‘zlashtirish sifati, ma’lum amaliy ko‘nikmalarni egallashini ta’minlaydi.

O‘quv qo‘llanmalarni mustaqil o‘qish, Maruzalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, odatda, fanni o‘rganish vaqtining kamida 50% ini tashkil etadi. OTM talabalari o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmi o‘qituvchi bilan auditoriya ishlariga jaratilgan sotalardan bir necha barobarga ortiq. Aynan shuning uchun ham talabalarning mutsaqil ishlari mutaxassis tayyorlash sifatini oshirishda asosiy omil bo‘lib qoladi.

Talabalarning mustaqil ishlari – o‘quv jarayonini tashkil qilishning alohida shakli bo‘lib, talabalarning o‘qituvchining bevosa yordamisiz amalga oshiriladigan, muayyan natijani ko‘zlagan, rejalanigan, bilish, tashkiliy va metodik jihatdan yo‘naltiriladigan faoliyatidir. Talabalar mustaqil ishlarining asosiy turlari

referat, nazorat ishi, kurs va biriruv malakaviy ishlarni bajarish, shuningdek, diagnosti (tashhis), didaktik va boshqa qo'llanmalarni ishlab chiqish, ijodiy ishlarni sanaladi. Bundan tashqari, talabalarning Maruza, amaliy va seminar mashg'ulotidan oldingi mustaqil tayyorgarligi ular samaradorligining jiddiy ravishda oshishiga xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil ishlari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi<sup>11</sup>:

- 1) alohida mavzular bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- 2) bu bilimlarni amaliy psixologik-pedagogik vazifalarni hal qilishda qo'llash malakalarini egallah;
- 3) eksperimental tadqiqot olib borish ko'nikma va malakalarini egallah;
- 4) amaliy pedagogik, diagnostik va korreksion ish ko'nikma va malakalarini egallah;
- 5) o'z-o'zini bili shva o'z-o'zini rivojlantirish malakalarini rivojlantirish.

Talabalarning o'quv-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra mustaqil ishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- reproduktiv (o'quv materialini o'zlashtirish);
  - produktiv (mahsuldar, samarali – yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va ulardan muayyan vazifa va vaziyatlarni hal qilishda foydalanish).

Bajarish metodiga ko'ra auditoriyada bajariladigan va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni farqlanadi.

Talabalarning auditoriyadagi mustaqil ishlari o'quv reja va o'quv fanining dasturi bilan belgilanadi, o'quv jadvali bilan tartibga solinadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida bajariladi va Maruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, kollokviumlar, turli amaliyotlarni o'tash va sh.k. tarkibiga kiritiladi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni – o'quv, ishlab chiqarish, ilmiytadqiqot va mustaqil ta'lif faoliyati turlari.

Mutaxassis defektologlarni tayyorlash jarayonida talabalar mustaqil ishlarning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda yakka tartibda va guruhda ijodiy topshiriqlarni bajarish ko'zda tutiladi. Bu kabi topshiriq variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- logopedik tekshirish albomini tayyorlash;
- ilk, maktabgacha va kichik mакtab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik o'r ganish metodikalari majmualarini tayyorlash;
- ta'lif muassasalarida suratga olingan yoki talabalarning o'zlari ish o'yini tarzida ishtiroy etgan materiallardan iborat o'quv videofilmlarini tayyorlash;
- maxsus fanlar bo'yicha terminologik (atamashunoslik) krossvorlarini to'zish;

---

<sup>11</sup> Карандашев В. Н. Методика преподавания психологии: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 250 с.

- maxsus fanlar bo‘yicha test topshiriqlarini to‘zish;
- murakkab pedagogik vaziyatlar va ularni hal qilish yo‘llarini modellashtirish;
- pedagoglar, ota-onalar yoki tarbiyalanuvchilar bilan maxsus pedagogika va psixologiya muammolariga oid intervyyu yoki so‘rovlar o‘tkazish.

Mustaqil ishning bu kabi shakllari har bir talabaga o‘z qobiliyat va qiziqishlarini namoyon etish, bilishga qiziqishini rivvojlantirish va xatto passiv, ishdan chetda qoladigan talabalarni ishga jalg qilish imkonini beradi.

Mustaqil ish juftliklarda yoki uch kishi ishtirokida bajarilganda yanada samarali bo‘ladi. Guruhda ishslash motivatsiya va o‘zaro intellektual faollikni kuchaytiradi, o‘zaro nazorat tufayli talabalarning bilish faoliyati samaradorligini oshiradi. Sherik(lar)ning ishtiroki talaba psixologiyasini jiddiy o‘zgartiradi. Yakka tartibda tayyorlanganda talaba o‘z faoliyatini to‘laqonli va tugal sifatida sub’ektiv baholaydi, biroq bu xato yanglish bo‘lishi mumkin. Guruhda yakka tartibda ishlaganda guruhda o‘z-o‘zini tekshirish amalga oshiriladi, keyin o‘qituvchi tomonidan korreksiya ishi bajariladi. Mustaqil o‘quv faoliyatining bu ikkinchi bo‘g‘ini yaxlit ish samaradorligini oshiradi. Mustaqil ishlar darajasi yetarlicha yuqori bo‘lganda talabaning o‘zi ishning yakka tartibdagi qismini bajarishi va uni sherigi-kursdoshiga namoyish qlishi mumkin.

Mustaqil ish, bir tomondan, o‘zining tashkiliy shakllari va usullariga ega, boshqa tomondan esa, stixiyali, individual xarakter kasb etadi. Mustaqil ishning bu tomoni mavjudligi ayrim nazariyotchilarni unda o‘qituvchining ishtiroki minimal darajada bo‘lishi kerakligi haqidagi yanglish fikrga undaydi. Biroq bu kabi minimallashtirish o‘qituvchini talabalarning mustaqil mashg‘ulotlarini tashkil qilish va uni amalga oshirishning borishini nazorat qilish zaruratidan xoli etmaydi, bu ayniqsa mustaqil ishning muayyan turlarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Talabalarning mustaqil ishni amalga oshirishida o‘qituvchining ishtirokiga ko‘ra u quyidagicha tasniflanadi:

- o‘qituvchining rahbarligida, biroq uning bevosita aralashuvvisiz ish (masalan, nazorat ishi);
- o‘qituvchining bilvosita rahbarligida ishslash (uning topshiriqlarini bajarish orqali);
- to‘liq mustaqil ish (o‘qituvchining biror bir ishtirokisiz o‘zining shaxsiy bilishga qiziqishlarini qondirish).
- Mustaqil ish faoliyatli xarakterga ega, shu sababli uning strukturasida umuman faoliyat uchun xos bo‘lgan komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: motivatsion bo‘g‘inlar, muayyan vazifani qo‘yish, bajarish usullarini tanlash, ijro bo‘g‘inlari, nazorat. Shu munosabat bilan mustaqil ishni muvaffaqiyatli bajarishni ta‘minlaydigan qo‘yidagi omillarni ko‘rsatish mumkin<sup>12</sup>:

---

<sup>12</sup> Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы: учебное пособие. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. - 544 с.

1. O‘quv topshirig‘ining motivatsiyalanganligi (nima uchun, nimaga ko‘maklashadi).
2. Bilish vazifalarining aniq qo‘yilganligi.
3. Ishni bajarish algoritmi, metodi, talabaning ishni bajarish usullarini bilishi.
4. O‘qituvchi tomonidan hisobot shakllari, ish hajmi, uni taqdim etish muddatlarining aniq belgilanganligi.
5. Konsultativ yordam turlarining belgilanganligi (yo‘l-yo‘riq berish (ustanovka), mavzuli, muammoli konsultatsiyalar).
6. Baholash, hisobot va sh.k. mezonlari.
7. Nazorat turlari va shakllari (praktikum, nazorat ishi, test, seminar va sh.k.).

Demak, talabaning mustaqil ishi – uning materialni o‘zlashtirish, uni to‘ldirish va amaliy vaziyatlarda qo‘llashda o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi.

### **Talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati**

Talabalarning OTM da o‘quv mashg‘ulotlarining muhim shakli ularning o‘quv-tadqiqot va ilmsiy-tadqiqot ishlarida ishtiroki sanaladi. Bu ish ko‘proq kurs va bitiruv malakaviy (diplom) ishlarini bajarish vaqtida amalga oshiriladi.

Ilmiy ish talabandan nafaqat izlanish va izlanish natijalarini umumlashtirishni talabetadi, balki o‘z fikrini, asoslari va xulosalarini mustaqil bayon etish malakasini shakllantiradi. Ilmiy ish tadqiq qilinadigan masalaga yakka tartibda yondashuvni, talabaning fikrlash doirasi kengligini, uning o‘zuv materialini o‘rganishda ma’dilum bo‘lib ulgurganidan o‘zoqroqqa borishga intilishini taqozo etadi. Aynan ilmiy ish jarayonida talabaning mustaqil ishi mohiyati to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Bunda nafaqat matnni gapirish, balki uni tezis shakldiga ko‘chirish, talabalar ilmiy anjumanlarida chiqishga tayyorlanish, ma’lum sharoitlarda esa xatto materialni nashrga tayyorlashga to‘g‘ri keladi. Demak, ilmiy ishni tayyorlash va ilmsiy konferensiyada ishtirok mustaqil ishlarni amalga oshirishning o‘ziga xos kulminatsiyasi sanaladi.

Talabalarning mustaqil ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, odatda, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini tayyorlash shaklida amalga oshiriladi. Referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlarini tayyorlash bakalavr-defektologlar tayyorlash o‘quv rejalarida ko‘zda tutiladi.

O‘quv rejada referat va kurs ishlarini tayyorlash bo‘yicha topshiriqlar talabaning ta’lim yillari bo‘yicha taqsimlanishi belgilanadi. Ishlarga qo‘yiladigan aniq talablar ularni bajarishga rahbarlik qiladigan kafedra tomonidan belgilanadi.

Referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari uzviylik kasb etib, mavzu talaba va ilmiy rahbarni qiziqtirgan ilmiy yo‘nalishda izchillik bilan rivojlantirib borilishi mumkin. Ayni vaqtida talabalarning ayrim malakaviy ishlari bir-biridan

nisbatan mustaqil bo‘lishi va turli o‘qituvchilar ilmiy rahbarligida amalga oshirilishi ham mumkin.

**Referat** fan bo‘yichamustaqil o‘quv ishining shakli bo‘lib, shu o‘quv fani doirasidagi u yoki bu mavzu bilan batafsil tanishishga yo‘naltiriladi. Bu ma’lum mavzuga qaratilgan yozma ish bo‘lib, fan klassiklari, hujjatlar, maxsus tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar, maqolalart va boshqa zamonaviy nashrlarni o‘rganishga asoslangan holda ilmiy ishga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tayyorlanadi. Materialni to‘plash, uni yozish va og‘zaki bayon qilishilmiy-tadqiqot ishi ko‘nikmalarini ishslashga ko‘maklashadi, materialni mustaqil tahlil, qayta ishslash va tizimlashtirishni ko‘zda tutadi, tanlangan masala yo‘zasidan turli nuqtai nazarlarni solishtirish va o‘zining shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirish va uni asoslash imkoniy yo‘zaga keladi.

Referattayyorlash ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi va matarialni mustaqil anglash hamda bayon qilish sari dastlabki qadam sanaladi, u talabalardan nostandard g‘oyalar va ularni asoslashni talab etadi, talabalarni o‘z-o‘zini takomillashtirish va kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni to‘plashga undaydi. Xuddi shu gaplarni talabalar konferensiyasi va tanlovlari doirasida Maruza (doklad) tayyorlash haqida ham aytish mumkin.

**Kurs** ishi, odatda, 2-, 3- va 4- kurslarda bajariladi. Kurs ishlarining bu kabi bajarilishi ilmiy-tadqiqotchilik malakalari, shuningdek, maxsus pedagogika va psixologiya sohasida muayyan psixologik-pedagogik muammoni hal qilish malakalarining uzviy shakllantirilishini ta’minlash lozim.

Kurs ishi o‘quv fanini o‘rganishnig yakunlovchi bosqichida bajariladi, uni bajarish davomida olingan bilim va malakalardan foydalaniladi. Fan bo‘yicha kurs ishi qusyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- maxsus fanlar bo‘yicha olingan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tizimlashtirish va mustahkamlash;
- berilgan mavzu doirasida nazariy bilimlarni chuqurlashtirish;
- ilmiy-metodik adabiyotlar, ma’lumotnomalar, meyoriy va huquqiy hujjatlardan tadqiqot o‘tkazish maqsadida foydalanish malakalarini takomillashtirish;
- nazariy bilimlardan amaliy masalalarni hal qilishda foydalanish malakalarini shakllantirish;
- ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas’uliyat va uyushqoqlikni rivojlantirish;
- bitiruv malakaviy ishni bajarishga tayyorgarlik.

Kurs ishlari mavzulari professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va kafedrada muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Kurs ishlari mavzulario‘quv fanlari ishchi dasturlarida tavsiya etilganlarga muvofiq kelishi lozim. Kurs ishi mavzusi talabaning pedagogik amaliyoti bilan, o‘qishdan bo‘sh vaqtida ishlaydigan talabalar uchun esa ularning ta’lim muassasasidagi bevosita ishi bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Kurs ishi kelgusi bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

Tanlangan mavzu va mazmuniga ko‘ra kurs ishi referativ, amaliy yoki eksperimental xarakterda bo‘lishi mumkin. Kurs ishi hajmi bosma 25 sahifadagi matndan kam bo‘lmasligi lozim.

### **Referativ xarakterdagi kurs ishi quyidagilardan iborat:**

- kirish, unda mavzuning dolzarbliji va ahamiyati, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot metodlari (bu o‘rinda adabiyotlar tahlili) yoritiladi;
- nazariy qism. Bunda ikki bobda masalaning tarixi, muammoning nazariya va amaliyotdagi ishlanganlik darajasi adabiyotlar qiyosiy tahlili vositasida keltiriladi;
- xulosa, bunda xulosa va ish materiallaridan foydalanish imkoniyatlariga oid tavsiyalar keltiriladi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilova (lar).

### **Amaliy xarakterdagi kurs ishi to‘zilishi quyidagilardan iborat bo‘ladi:**

- kirish, unda mavzuning dolzarbliji va ahamiyati, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot metodlari yoritiladi;
- asosiy qism, u ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda ishlanayotgan mavzuning nazariy asoslari; ikkinchisida o‘rganilayotgan muammoning amaliyotdagi holati grafik, jadval, sxema ko‘rinishida taqdim etilgan statistik ma’lumotlar tahlili tahlili va amaliy tajriba, vaziyatning bevosita tasviri vositasida yoritiladi;
- xulosa, bunda xulosa va ish materiallaridan foydalanish imkoniyatlariga oid tavsiyalar keltiriladi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilova (lar).

### **Eksperimental xarakterdagi kurs ishi:**

- kirish, unda mavzuning dolzarbliji va ahamiyati, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot metodlari yoritiladi;
- asosiy qism, ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda ishlanayotgan mavzuning nazariy asoslari, masalaning tarixi, muammoning nazariy va amaliy jig‘atdan ishlanganlik darajasi; ikkinchi bobda esa, eksperimental tadqiqot metodikasi, eksperimentning asosiy bosqichlari, obrabotka i analiz rezultatov eksperiment natijalarining qayta ishlanganligi va tahlili bayon etiladi;
- xulosa, bunda xulosa va ish materiallaridan foydalanish imkoniyatlariga oid tavsiyalar keltiriladi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- ilova (lar) dan iborat.

Kurs ishiga umumiylah barbarlik va uning bajarilishi ustidan nazoratni tegishli fan o‘qituvchisi amalga oshiradi. Kurs ishi rahbarining asosiy vazifalari kurs ishi mazmuni va uni bajarish ketma-ketligi borasida maslaat; talabaga zarur

adabiyotlarni tanlashda ko‘maklashish; kurs ishini bajarishning borishi ustidan nazorat; kurs ishiga yozma taqriz tayyorlashdan iborat.

Konsultatsiyalar davomida o‘qituvchi tomonidan kurs ishining maqsadli va vazifalari, uning strukturasi va hajmi, ishlab chiqish va rasmiylashtirish prinsiplari, adabiyot bilan ishlash yo‘llari va prinsiplari tushuntiriladi, shuningdek, talabalar savollarig ajavob beriladi. Konsultatsiyalar o‘quv rejada mazkur ishga ajratilgan vaqt hajmi hisobiga amalga oshiriladi.

Talaba kurs ishi ustida ishni tamomlagach, rahbar uni tekshiradi va yozma taqriz bilan talabaga tanishish uchun beradi. Yozma taqriz kurs ishining berilgan mavzuga mosligi haqda xulosa, uni bajarish sifatiga baho, qo‘yilgan masalalarining to‘liq ishlanganligiga baho, talaba tomonidan ijodiy yondashilganligiga bahoni o‘z ichiga olishi kerak.

Kurs ishiga taqriz, uni qabul qilishni o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtida amalga oshiradi. Bu ishlarni bajarish uchun har bir kurs ishiga 1 soatdan vaqt ajratiladi.

Zurur hollarda kurs ishi rahbari kurs ishi himoyasini ko‘zda to‘tishi mumkin. Kurs ishi bo‘yicha qoniqarsiz baho olgan talabalarga yangi kurs ishi mavzusini tanlash yoki odingisini qayta ishlash huquqi beriladi, uni bajarish uchun yangi muddat tayinlanadi.

**Bitiruv malakaviy ish** talabani butun o‘qish davri uchun yakuniy attestatsiyalash shakli sanaladi, ham o‘qituvchi, ham baholovchi vazifa bajaradi. Uning ustida ishlaganda talaba kurs ishi bajarishda egallagan malakalarini namoyon etishi kerak.

Bitiruv malakaviy ish bitiruvchining kasbiy eruditsiyasi yuqori darajasini, uning metodik tayyorgarligini, kasbiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini egallaganligini aniqlashi lozim. Shunga ko‘ra bitiruv malakaviy ishning maqsadi: nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni tizimlashtirish va mustahkamlash;

- bilim va amaliy ko‘nikmalardan aniq ilmiy-tadqiqotchilik va ilmiy-amaliy muammolarni hal qilishda foydalanish;
- mustiaql ish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- materialni umumlashtirish va mantiqiy bayon qlish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- eksperimental tadqiqot metodikasini egallah.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda talaba quyidagi qobiliyatlarni namoyish etili talab qilinadi:

- mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqotchilik va ilmiy-amaliy vazifani qo‘yish, uning dolzarbligi va ahamitini baholash;
- tadqiqot farazini ilgari surish;
- ish mavshusi bo‘yicha axborotni to‘plash va qayta ishslash;
- oliengan materialni o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish;
- aniqlangan muammoni chuqur va har taraflama tadqiq qilish;

- o‘rganilayotgan muammoni hal qilishning o‘z variantini ishlab chiqish, tavsiflash va asoslash;
- xulosa va olingan natijalarni amaliyotga joriy etish yo‘zasidan takliflarni ishlab chiqish, rasmiylashtirish va mantiqiy asoslab berish.

Mutaxassisni yakunik davlat attetatsiyasidan o‘tkazish talablariga muvofiq bitiruv malakaviy ish nazariy yoki empirik tadqiqot natijalari yoki asoslangan korreksion, didaktik yoki diagnostik metodika loyhasidan iborat.

Bitiruv malakaviy ish mavzulari fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va amaliyot ehtiyojlariga muvofiq tarzda kafedrada ishlab chiqiladi va OTM Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Talaba taklif qilingan mavzulardan birini tanlaydi, shu bilan birga o‘ining shaxsiy ilmiy-tadqiqot ishi tajribasiga tayanib, mustaqil ravishda mavzu taklif qilishi va uni ishlab chiqish maqsadga muvolfiqligini asoslashi mumkin.

Mavzular rektor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Mavzuni o‘zgartirishga faqat istisno tarzida yo‘l qo‘yiladi va rektor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishni talaba kafedraning tavsiyasi bilan OTM professor-o‘qituvchilari tarkibidan tavsiya qilingan va tasdiqlangan ilmiy rahbar qo‘l ostida bajaradi.

Bitiruv malakaviy tadqiqot ustida ishslash uchun talaba qator bosqichlarni ko‘zda tutadigan reja-grafik ishlab chiqadi va rahbar bilan kelishadi. Bu bosqichlar quyidagicha:

- kasbiy faoliyat sohasini belgilash va ish bag‘ishlanadigan muammoni aniqlashtirish;
- ish mavzusini, uning ishchi nomini va tadqiqot farazini shakllantirish;
- axborot makonini belgilash va muaamoga oid adabiyotlarni izlash, annotatsiyalangan kartoteka to‘zish, manbalarni referatlash. Bunda talaba mavzuning umumiy masalalaridan xususiy muammoga yoki tanlangan muammoni xususiy o‘rganishdan uning umumiy manbalariga tomon yo‘lni belgilashi mumkin;
- nazariy tadqiqot natijalarini muhokama qilish, maqsad, vazifalar va tadqiqot farazini aniqlashtirish, ishning amaliy qismi uchun vazifalarni belgilash;
- eksperimental baza, metodikalarni aniqlash va eksperimentining borishini rejaalashtirish;
- eksperimental tadqiqot o‘tkazish va natijalarni to‘plash, tahlil va talqin qilish;
- bitiruv malakaviy tadqiqot nomini (zarar hollarda) korreksiyalash, ish matnini yozish va rahbar tomonidan tekshirishilishi;
- ishni, ilovalarni, illyustrativ materialni rasmiylashtirish;
- ishni taqrizchiga taqdim qilish, taqriz bilan tanishish;
- himoya uchun chiqish (Maruza) ni tayyorlash, zarur hollarda uni aprobatsiyalash (sinovdan o‘tkazish – dastlabki himoya qilish).

Reja-grafik majburiy meyoriy hujjat sanaladi, rahbar tomonidan imzolanadi, mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudini tomonidan imzolanadi. Reja-grafik bitiruv malakaviy ishga, sarvaraqdan keyin qo‘sib tikiladi.

Rahbar ishning bajarilishini qismlar bo'yicha va yaxlit tekshiradi, ishning grafika muvofiq bajarilishini nazorat qiladi va kafedrani bitiruvchi talaba ishining ahvoli haqida muntazam xabardor qilib boradi.

Malakaviy ish rahbari talabaga ishni tayyorlash va yozish davrida nazariy va amaliy yordam beradi, ish strukturasi, mazmuni va uni rasmiylashtirish, adabiyotlarni tanlash va sh.k. yo'zasidan tasviyalar beradi. Bundan tashqari, rahbar asoslash, kompozitsiya, uslub va sh.k. larga oid kamchiliklarni, ularni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatib, maslahatlar beradi.

Bitiruv malakaviy ishni talaba mustaqil bajarishi va barcha zarur hujjatlarni rasmiylashtirishi, jumladannamoyish qilinadigan materialni tayyorlashini nazarda to'tish lozim. Mavzuni nazariy va metodik jihatdan to'g'ri ishlab chiqish va yoritish, uning sifati va mazmuni uchun javobgarlik to'lig'icha talabaning zimmasidadir.

Tugallangan ish rahbarga topshiriladi, rahbar uni o'qib chiqqach, imzolaydi va yozma xulosa beradi. Rahbarning xulosasi asosida kafedra talabani himoyaga qo'yish haqda qaror qiladi. Kafedra mudiri talabani himoyaga qo'yish mumkin emas, deb topsa, masala rahbarning majburiy ishtirokida kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi va bayonnomasini rasmiylashtiriladi.

Buyruq bilan himoyaga qo'yilgan bitiruv malakaviy ish taqrizga yuboriladi. Taqrizchi sifatida, odatda, tadqiqot bazasi sanalgan ta'lim muassasining yetakchi mutaxassislaridan biri, shuningdek, tadqiqot muammosi bo'yicha ekspert sanalgan OTM professor-o'qituvchisi jalb qilinadi. Taqrizchilar tarkibi kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizni olgan, talaba ilmiy rahbari bilan birgalikda taqrizchining e'tirozlariga javob tayyorlishi, zarur hollarda ishga tegishli to'zatish va to'grilashlar kiritishi kerak bo'ladi.

Taqrizchi tomonidan ishda jiddiy kamchiliklar aniqlangani holda ular bartaraf etilgach, kafedra uni qayta taqrizga yuborishga haqli.

Kafedra mudiri rahbar taqrizi va/yoki dastlabki himoya natijalari va/yoki taqrizchilar e'tirozlariga asosan talabani bitiruv malakaiysh ishni DAK da himoya qilishga qo'yib bo'maydi, deb hisoblasa, bu masala muallif va rahbar ishtirokida kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Himoyaga qo'yilgan bitiruv malakaviy ish rahbar xulosasi va taqrizlar bilan DAK ga himoyaga yuboriladi.

Bitiruv malakaviy ish, odatda, quyidagicha strukt ruaga ega: kirish, nazariy qism (birinchi bob), eksperimental tadqiqot (ikkinci qism), psixologik-pedagogik tavsiyalar (uchinchi bob).

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliги asoalanadi, uning maqsadi, vazifalari belgilanadi, predmeti, ob'ekti qisqacha tavsiflanadi, tadqiqot farazi shakllantiriladi va amaldiy ahamiyati aks ettiriladi. Bundan tashqari, kirish qismida ish boblarining qisqacha tavsiyai keltiriladi.

Tadqiqot mavzusining dolzaobligini asoslash nazariy manbalar, ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari va kasbiy amaliy faoliyat realiyalari asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot dolzarbligining isboti vanatanimiz va xorij olimlarining o‘rganilayotgan muammoga katta e’tibor qaratishi, shuningdek, yetarlicha yritilmagan va aniqlashtirishni ialab etadigan savollarning mavjudligi bo‘lishi mumkin. Qo‘yilgan muammoning yechimi kasbiy sohadagi faoliyat, muayyan muassasalar ishini takoillashtirish uchun ahamiyat kasb etishi ham bo‘lishi mumkin.

Bitiruv malakaviy shi maqsadi qo‘yilgan muammoni yechishdan iborat. U qo‘yidagicha shakllantirilishi mumkin: qandaydir psixik-jismoniy nuqson xususiyatlarini o‘rganish, uning bola rivojlanishiga ta’sirini aniqlash, tashhis, o‘quv-tarbiyaviy, korreksion metodika, texnologiya ishlab chiqish, ularning samaradorligini o‘rganish va sh.k.

Tadqiqot vazifalari uning maqsadini aniqlashtiradi va bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Odatda, bitiruv malakaviy ishda quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘rganilayotgan muammoga doir nazariy manbalar tahlili;
- o‘rganilayotgan hodisaning dolzarb holati, shuningdek, ehtimol, uning keyingi rivojlanish istiqbollari va sabablarini aniqlash;
- eksperimental bazani belgilash;
- tadqiqot metodlarini tanlash;
- empirik tadqiqot o‘tkazish;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti sifatida sinaluvchilarining muayyan saylanmasi, umuman hodisa yo uning ayrim tomonlari rivojlanishi va namoyon bo‘lishining qonuniyatları va jarayoni bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda tadqiqot ob’ekti tanlangan mavzu va ish muammoiga muvofiq kelishi lozim.

Tadqiqot predmeti ishning mavzusi va aob’ektiga qat’iy muvofiq va aniq belgilanishi kerak. BMI predmeti sifatida u yoki bu hodisaning xususiyatlari, strukturaviy komponentlari, uni o‘rganish, uni tashhislashning yo‘llari va metodlari, o‘quv-tarbiyaviy chora-tadbirlar, psixologiy-pedagogik, korreksion choralarshuningdek ta’sir samaradoroligini oshiradigan sharoitlardan iborat bo‘lishi mumkin.

BMI amaliy ahamiyati uning muammoni hal qilish, tadqiqot natijalari amaliyotda ko‘rsata oladigan aniq yordamda o‘z ifodasini topadi. Odatda, ishning amaliy ahamiyatini o‘rganilayotgan hodisaning aniqlangan xususiyatlari va ishlab chiqilgan tavsiyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy qismi birinchi bobda (zarur hollarda ikki bobda) taqdim etilishi kerak. Unda vatanimiz va xorij olimlarining ishlari tahlili va talqini, o‘rganilayotgan muammoga turli yondashuvlarnig o‘ziga xosliklari, uning umumiyl problematikada tutgan o‘rni va ahamiyati, hal qlinmagan, zaif yoritilgan va aniqlashtirishni talab qiladigan masalalar bayon qilinadi. Uning analistik yo‘nalganligini kuchaytirish uchun materialni turli asoslarga ko‘ra tizimlashtirish,

umumlashtirish va tasniflash tavsiya etiladi. Masalan, masalan itarixiy kontekstda o‘rganish, turli maktab va oqimlarga mansub tadqiqotchilar, mahalliy va joridj olimlari nuqtai nazaridan o‘rganish va sh.k.

BMI ning sifatli bajarilishi kamida 50 ta nazariy manbani o‘rganishni talab etadi, ular orasida mutaxasislar monografiyalari va ilmiy maqolalar (ular adabiyotlarning asosiy qismini tashkil qilishi), darslik va o‘quv qo‘llanmalar, lug‘at va ma’lumotnama (spravochnik) lar bo‘lishi kerak. Nafaqat xorij, balki madburiy tartibda mahalliy tadqiqotchilar ishlari keltirilishi lozim.

Matnda, o‘rganilgan adabiy ma’lumotlarga havolalar bilan bir qatorda, BMI muallifining nuqtai nazari, pozitsiyasi, sharhi aks ettirilishi va asoslanishi lozim.

BMI birinchi bobo o‘rganilayotgan muammoning alohida jihatlarini aks ettirgan kamida ikki paragrafni o‘z ichiga olishi kerak. Har bir paragraf mantiqiy asoslangan xudosalar, masala mohiyatining qisqacha bayoni bilan tugallanadi. Bob oxirida tadqiqot muammosining ishlanganlik darajasi, uni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari, uning dolzarbliji va sh.k. haqida xulosa keltiriladi. Birinchi bob yo‘zasidan xulosalar eksperimental amaliy tadqiqot asoslanishini o‘z ichiga olishi kerak.

Analitik sharh matniga quyidagi talablar qo‘yiladi: axborotning to‘liq va ishonchliligi; axborotga tanqidiy bahoning mavjudligi; struktura mantikqiyligi; kompozitsion yaxlitlik; xulosalarning asoslanganligi; bayonning aniq va lo‘ndaligi.

BMI ikkinchi bobbi eksperimental tadqiqot natijalarini o‘z ichiga oladi. Odatda, u 3 paragrafga bo‘linadi. Bu holda birinchi paragrafda sinaluvchilar tarkibi, ularning kengaytirilgan tavsifini (soni, yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, holati xususiyatlari va sh.k.) keltirish maqsadga muvofiq. Ikkinchi paragrafda eksperimental tadqiqotning borishi, shakllari va metodlarini (qaerda, qachon va qay muddatlarda, yakka yo guruh tartibida o‘tkazilgani, foydalanilgan metodlar va aniq eksperimental metodikalar) tavsiflash va asoslash, qo‘llangan metodlarning BMI maqsad va vazifalariga muvofiqligini isbotlash kerak. Tadqiqot o‘tkazish uchun zarur ko‘rgazmali va matn materiali ko‘p joy talab etsa, ularni ilovalarda berish tavsiya etiladi. Paragraf matnida metodikalarnng umumiyligi tavsifi va ilovaga havola, bibliografik manbalar keltiriladi.

